

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

MAGISTRATURA BO'LIMI

Qo'lyozma huquqida
UDK:332.144

JO'RAYEV AHMAD SAIDNAZAR O'G'LI

**HUDUDIIY TADBIRKORLIK FAOLİYATI RIVOJLANISHINI
STATISTIK USULLARDAGI TAHLILINI TAKOMILLASHTIRISH**

70310102 – Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) mutaxassisligi
bo'yicha Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar:

i.f.f.d., dots. S.T.Toshaliyeva

Termiz – 2024

Magistrlik dissertatsiyasi mavzusi Termiz davlat universiteti rektorining 2022-yil 28-oktyabrdagi №6-T/M sonli buyrug‘i asosida tasdiqlangan.

Magistrlik dissertatsiyasi Termiz davlat universiteti Iqtisodiyot kafedrasida bajarilgan.

Magistrlik dissertatsiyasi elektron nusxasi Termiz davlat universitetining rasmiy veb sahifasiga joylashtirilgan.

Dissertatsiya manzilining QR-kodi:



Magistrlik dissertatsiyasi bilan Termiz davlat universitetining axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqam bilan ro‘yxatga olingan. Manzil: Termiz shahri Barkamol avlod ko‘chasi 43-uy.)

Ilmiy rahbar: _____ **I.f.f.d., (PhD) dots. S.T.Toshaliyeva**

Kafedra mudiri: _____ **i.f.f.d., (PhD) B.E. Turayev**

Magistratura bo‘limi boshlig‘i: _____ **i.f.f.d., (PhD) D.X.Abdurahmonov**

MUNDARIJA

	KIRISH	3
	
I-BOB	HUDUDIY TADBIRKORLIK FAOLIYATI RIVOJLANISHINI STATISTIK TADQIQ ETISHNING NAZARIY ASOSLARI.....	8
	...	
1.1.	Hududlar rivojlanishida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini statistik o'rganishning nazariy asoslari.....	8
	
1.2.	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiyotda tutgan o'rni.....	13
	
1.3.	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlanishi bo'yicha xorijiy tajribadan foydalanish yo'nalishlari	25
	
	Birinchi bob bo'yicha xulosa	34
	
II-BOB	HUDUDLARNI RIVOJLANISHIDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK FAOLIYATINING IQTISODIY-STATISTIK TAHLILI HOLATI.....	35
2.1.	Hududiy tadbirkorlik faoliyatini tavsiflovchi statistik ko'rsatkichlar tizimi.....	35
	
2.2.	Hududlarni tadbirkorlikning statistik ko'rsatkichlari orqali hududlar reytingini baholash holati.....	47
	
2.3.	Indekslar usuli yordamida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyati samaradorligini statistik tahlili.....	58
	Ikkinchi bob bo'yicha xulosa	66
	
III-BOB	HUDUDLARIY TADBIRKORLIK FAOLIYATI RIVOJLANISHIDA STATISTIK TAHLILNING	67

	AHAMİYATINI	OSHIRISH
	YO‘LLARI.....	
3.1.	Hududiy tadbirkorlik faoliyatini Panel tahlili asosida ekonometrik modellashtirishni takomillashtirish.....	67
3.2.	Hududlariy tadbirkorlik faoliyatini baholash va prognozlash usulini takomillashtirish.....	74
	
	Uchinchi bob bo‘yicha xulosa	79
	
	XULOSA VA TAKLIFLAR	80
	
	FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR	83
	
	ILOVA	
	

KIRISH

Magistrlik dissertatsiyasi mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi.

Jahonda global miqyosdagi raqobatning kuchayib borishi sharoitida ko‘plab rivojlangan mamlakatlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik (KBXT)dan aholi bandligini ta‘minlash, raqobat muhitini shakllantirish, innovatsion faollikni qo‘llabquvvatlash, ijtimoiy tengsizlikni yumshatish bo‘yicha muhim ijtimoiy-iqtisodiy funksiyalarni amalga oshirishda samarali foydalanilmoqda. KBXTning an’anaviy tarzda iqtisodiyotning o‘sish sur‘atini ko‘tarish va aholining turmush farovonligini oshirish borasida ulkan salohiyatga egaligi namoyon bo‘lmoqda. “Rivojlangan mamlakatlarda YaIMning tarkibida KBXT sohasining hissasi 50 foizdan yuqori, band aholining 63 foizi ushbu sohada mashg‘ul ekanligini

ko‘rishimiz mumkin”¹. Makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash, yuqori o‘sish sur‘atlarini ta‘minlash, yalpi ichki mahsulot hajmini oshirish, hududlarning innovatsion rivojlanishida KBXT faoliyatidan foydalanish muhim ahamiyatga ega.

Jahon iqtisodiyotining hozirgi globallashuv sharoitida hududlarning innovatsion rivojlanishida KBXT faoliyatidan foydalanish tadqiqiga yo‘naltirilgan ko‘plab ilmiy-tadqiqot ishlari amalga oshirilmoqda. Hududlarning iqtisodiy-innovatsion rivojlanish salohiyatini baholash, unda KBXTning ta‘sir darajasini aniqlash, biznes faoliyatini hozirgi zamonaviy yondashuvlar asosida ilg‘or texnologiya va boshqaruv usullarini tashkil etish, hududlardagi ichki salohiyatni kichik tadbirkorlik faoliyati orqali ishga solish kabilar bu boradagi ilmiy tadqiqotlarning muhim yo‘nalishlaridan hisoblanadi.

Yangi O‘zbekistonda yuqori va barqaror ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni ta‘minlashda hududlarni innovatsion rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Iqtisodiyotni modernizatsiyalashda kichik biznes sub‘ektlari faoliyatida yangi mahsulotlar va texnologiyalar yaratish hamda eksportbop tovarlar ishlab chiqarishga yo‘naltirilgan innovatsion siyosat yuritish taqozo etilmoqda. 2022 - 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasining “Iqtisodiyotga innovatsiyalarni keng joriy qilish, sanoat korxonalarini va ilm-fan muassasalarining kooperatsiya aloqalarini rivojlantirish” nomli 51-maqсадida “Innovatsion hududga aylantirilayotgan tumanlarda mavjud analoglaridan 50 foizgacha arzonlashtirilgan va sifatli, xom ashyo narxiga nisbatan 2-3 baravar yuqori qo‘shilgan qiymat yaratadigan innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarish texnologiyalarini o‘zlashtirish, shu jumladan umumiy qiymati 165,9 milliard so‘mlik jami 195 ta loyihani amalga oshirish”² vazifalari belgilab berilgan. Mazkur vazifalarni samarali amalga oshirilishi axborot-kommunikatsiya va dasturlash xizmatlarini hisobga olish metodologiyasini xalqaro tavsiyalar hamda tajribalar asosida takomillashtirish, hududlarni innovatsion rivojlanishida KBXTning statistik ko‘rsatkichlari asosida

¹ <https://www.worldbank.org/en/topic/sme/finance> ma‘lumotlari

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60- son «2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi Farmoni. - <https://lex.uz>

hududlar reytingini aniqlash, hududlarning innovatsion rivojlanishida kichik tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan texnologik, marketing tashkiliy innovatsiyalarga qilingan xarajatlar hamda ishlab chiqarilgan innovatsion tovarlar, ishlar va xizmatlar nisbati indeksiga asoslangan uslubiy yondashuvlarni kiritish, ko'p variantli ekonometrik modellarni qurish asosida KBXT faoliyatining istiqboldagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning o'rta muddatli prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqish kabi ilmiy-uslubiy masalalarning tadqiq etilishini taqozo etadi.

Mazkur ustuvor masalalarni tadqiq etish orqali KBXT faoliyatini barqaror rivojlantirish orqali mamlakatimiz hududlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish taraqqiyotini ta'minlaydi.

Tadqiqot obyekti va predmeti. Tadqiqotning obyekti bo'lib mamlakatimiz iqtisodiyot tarmoqlari korxonalar va tashkilotlari rivojlanish jarayonlarini statistik tahlil qilish va baholash hisoblanadi. Tadqiqotning predmeti bo'lib iqtisodiyot tarmoqlari korxonalarini statistik tadqiq qilish jarayonida yuzaga chiqadigan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar yig'indisi hisoblanadi.

Tadqiqot maqsadi va vazifalari. Ishning maqsadi bo'lib Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida hududlarda tadbirkorlik faoliyatini nazariy-uslubiy jihatlarini takomillashtirish, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish holatini statistik usullarda baholash yuzasidan ilmiy takliflar va tavsiyalar ishlab chiqish hisoblanadi.

Belgilangan maqsaddan kelib chiqib, bir qator vazifalar qo'yildi va hal etildi:

-hududiy tadbirkorlikning milliy iqtisodiyotdagi tutgan o'rnini va o'ziga xos xususiyatlarini ilmiy tadqiq etish;

-mintaqalarda tadbirkorlikni rivojlantirish borasidagi xorijiy tajribalardan samarali foydalanish yo'llarini asoslash;

- Mamlakatimiz hududiy tadbirkorlikning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining statistik usullardagi tahlilini amalga oshirish;

- Mamlakatimiz hududiy tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha statistik kuzatishlar olib borish;

- viloyatda hududiy tadbirkorlikning samaradorligini oshirish bo'yicha ilmiy takliflar tayorlash.

Ilmiy yangiligi:

- Yalpi ichki mahsulotga kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning hududlar bo'yicha ta'sirini tahlil qilindi va buning uchun uning korrelitsion jadvali tuzildi.

- Tadqiqotimizda hududlarning kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasidagi mehnat unumdorligini aniqlash uchun o'rtacha arifmetik indeksini qo'lladik.

- "Panel" modeli asosida Yalpi qo'shilgan qiymatga kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasining ta'sir darajasini ekonometrik modellashtirdik.

Tadqiqot mavzusi bo'yicha adabiyotlar sharhi (tahlili).

Xususiy tadbirkorlik nazariyasining rivojlanishi xorijlik olimlardan J.Bodo, M.Veber, Dj. K.Gelbert, X.Ken, R.Kantilon, Ya.Kornai, A.Marshall, D.Norta, V.Oyken, M.Porter, P.Samuelson, R.Berrouza, P.Geng'li, D.Kren, D.Nyubolda, D.Rassel, D.Toruell va boshqalarning asarlarida keng bayon etilgan. Xorij fanida katta hajmdagi ilmiy tadqiqotlar tadbirkorlikni o'rganishning turli yo'nalishlarini rivojlantirishga qaratilgan. Kichik biznes rivojlanishining zamonaviy tendentsiyalari MDH davlatlari olimlaridan Sh.Ageev, A.Busgin, A.Blinov, E.Buxvalda, O.Emelyanov, V.Korolev, A.Kolesnikov, M.Lapusta, S.Mazol, V.Malgina, S.Mokichev, A.Orlov, M.Popov, V.Radaev, V.Rube, Yu.Starostin, Yu.Taraxuna, V.Fadeevlarning ilmiy asarlarida keng yoritilgan. O'zbekistonda hududiy tadbirkorlikning umumiy muammolari, shuningdek, ekonometrik modellarini tuzish bo'yicha mahalliy olimlardan S.S.Gulomov, Q.X.Abdurahmonov, X.P.Abulqosimov, YO.Abdullaev, A.V.Vahobov, A.Ayubjonov, X.Nabiev, M.Qosimova, B.K.Goyibnazarov va boshqa olimlar ilmiy tadqiqotlar olib borganlar.

Tadqiqotda qo'llanilgan metodikaning tavsifi. Tadqiqot ishida guruhlash, qiyosiy tahlil, tarkibiy tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati.

Ishning amaliy ahamiyati shundaki, undan Surxondaryo viloyatida hududiy tadbirkorlikni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning mahalliy dasturini ishlab chiqish hamda amaliy chora-tadbirlar belgilashda foydalanishlari mumkin.

Ish tuzilmasining tavsifi. Magistrlik dissertatsiyasi kirish, uchta bob, sakkizta paragraf, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar va ilovalardan iborat.

I BOB. HUDUDIY TADBIRKORLIK FAOLIYATI RIVOJLANISHINI STATISTIK TADQIQ ETISHNING NAZARIY ASOSLARI

1.1. Hududlar rivojlanishida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini statistik o'rganishning nazariy asoslari.

Hozirgi kunlarda oliy ta'lim tizimida eng dolzarb va qarama-qarshiliklarga ega bo'lgan tushuncha bo'lib "oliy ta'lim sifati" tushunchasi sanalmoqda. Mazkur tushuncha bugungi kunda ommaviy ravishda qo'llanilib, u oliy ta'lim faoliyatini tartibga soluvchi qonunchilik me'yorlarida ko'rsatib o'tilgan, pedagogik jamoatchilikning keng muhokamalari va munozaralarida atroflicha o'rganilmoqda, ko'plab olimlar va amaliyotchi-pedagoglarning tadqiqotlari ob'ekti bo'lib hisoblanmoqda.

Xorijiy va mahalliy olimlar o'rtasida KBXTning mamlakat iqtisodiy rivojlanishiga qo'shgan hissasi to'g'risida turli xil munozaralar hozirgi texnologik inqilob davrida yanada kuchayib bormoqda.

Innovatsion faoliyat keng ma'noli murakkab tushuncha hisoblanadi. Shunday ekan yangi texnologiyalarni rivojlantirish, o'ziga xos g'oyalar va yangi turdagi mahsulotlarni ishlab chiqish va xizmat ko'rsatishni o'z ichiga oladi. Innovatsiyalarning tarqalishi, bozorning yangi tarmoqlarini ochilishi, yangi mahsulotlar va texnologiyalarni boshqa sohalarga moslashtirish shular jumlasidandir. Shuning uchun mamlakat iqtisodiyotini rivojlanishida hududlarda KBXT sohasiga innovatsiyalar joriy qilish juda katta ahamiyatga ega. Ya'ni, hududlarda KBXT sohasida patent, bozor, ilmiy-texnik ma'lumotlarni tarqatish, ushbu faoliyatni rivojlantirishning tashkiliy va moliyaviy usullari, shuningdek ilmiy kadrlar tayyorlash va o'qitish tizimini joriy qilish lozim.

Hududlarda innovatsion faoliyat yangi turdagi mahsulotlar va bilimlarni olishga qaratilishi kerak. Buning natijasida hududlarda KBXT sohasida yangi mahsulotlar, texnologiyalar, texnik vositalar, materiallar, ishlab chiqarish va boshqa jarayonlarga ta'sir ko'rsatadi.

Hududlarni innovatsion rivojlanishida har qanday davlatning milliy iqtisodiyotida KBXTning o'rni kattadir. Rivojlangan mamlakatlarda KBXT sohasida ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlar eksporti va yalpi ichki mahsulotning katta qismini tashkil etib, KBXT sohasida hududlarda yangi ish o'rinlarini tashkil etishga imkon yaratadi. Hozirgi davrda KBXT faoliyati ishsizlikni kamaytirib, hududlarni moliyaviy va barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning asosiy omili, milliy va mintaqaviy iqtisodiyotning barqaror rivojlanish lokomotivi deb atash mumkin.

Bizga ma'lumki, Y.A.Shumpeter innovatsiyalar nazariyasining asoschisi bo'lib hisoblanadi. Uning 1911 yilda "Iqtisodiy rivojlanish nazariyasi" nomli asarida birinchi marta "yangi kombinatsiyalarni amalga oshirish" konsepsiyasini yozgan. Bu yerda birinchi marta ma'lum bir tasnif berilgan – "mavjud narsalar va kuchlarning diskretli ravishda paydo bo'lishining beshta asosiy holatini aniqladi:

– yangi tovarlar tayyorlash yoki mavjud bo‘lganlari uchun yangisini yaratish;
– ishlab chiqarishning yangi usulini joriy etish; – yangi bozorni rivojlantirish;
– xom ashyo yoki yarim tayyor mahsulotlarning yangi manbasidan foydalanish;

– ishlab chiqarishni tashkil etishda o‘zgarishlarni amalga oshirish³”.

“B.Santo innovatsion g‘oyalar va ixtirolardan foydalanishning ijtimoiy, iqtisodiy, texnik jarayoni deb hisoblaydi, bu esa oxir-oqibat yanada yaxshi xususiyatlarga ega mahsulotlar va texnologiyalarni yaratishga olib keladi. Ushbu jarayon iqtisodiy foyda olishga qaratilgan bo‘lib, faoliyatning barcha sektorini qamrab oladi: tadqiqotlar va ishlanmalardan tortib to yangiliklarni tarqatishgacha⁴”.

L.M.Goxbergning fikricha: “bozorga kiritilgan yangi yoki takomillashtirilgan mahsulot, amalda qo‘llaniladigan yangi yoki takomillashtirilgan texnologik jarayon shaklida namoyon bo‘lgan yangilikning yakuniy natijasi yoki ijtimoiy xizmatlarga yangicha yondashishdir”.⁵ Hududlarda KBXT sohasida innovatsiya paydo bo‘lishining zaruriy sharti voqelik va mumkin bo‘lgan holat o‘rtasidagi ziddiyatlarning mavjudligidir. KBXT sohasida innovatsiya bu kabi qarama-qarshiliklarni bartaraf etishning bir shakli. Demak, KBXT sohasida yangilik yaratishning falsafiy maqsadi o‘zgargan ehtiyojlar va mavjud imkoniyatlar o‘rtasidagi ziddiyatlarni hal qilish degan xulosaga kelishimiz mumkin. Bunday qarama-qarshiliklarni bartaraf etishning yangi paydo bo‘layotgan g‘oyalar, u yoki bu shakldagi yangiliklardir. Agar ma’lum bir g‘oyani KBXT sohasida amalda qo‘llanilib, keyinchalik tarqatilgan bo‘lsa, biz ushbu g‘oyani amaliy rivojlantirish natijasi bo‘lgan yangilik yaratish haqida gapirishimiz mumkin.

“S.Yu.Glazevning fikriga ko‘ra, har qanday innovatsion tizim o‘zining eng umumiy ko‘rinishida uchta komponentning o‘zaro ta’siri sifatida namoyon bo‘lishi mumkin: innovator, tashkilot va tashqi muhit”.⁶ Shu nuqtai nazaridan,

³ Шумпетер, Й.А. Теория экономического развития [Текст] / Й.А. Шумпетер. – М.: Директ-Медиа, 2007. – 400 с

⁴ Санто Б. Инновация как средство экономического развития [Текст]: пер. с венг. с изм. и доп. / Б. Санто. – М.: Прогресс, 1990. – 295 с.

⁵ 5 Статистика науки и инноваций. Краткий терминологический словарь [Текст] / под ред. Л. М. Гохберга. – М.: ЦЭМИ, 1996. – 253 с.

⁶ Глазьев С.Ю. Теория долгосрочного технико-экономического развития [Текст] / С.Ю. Глазьев. – М.: ВлаДар, 1993. – 310 с

“L.S.Blyaxmana, innovatsion tizim – bu ilmiy tadqiqotlar, yangiliklar, ixtirolar, shuningdek bozor va iqtisodiy sharoitlarning ta’siri, tadbirkorlarning motivatsiyasi va imkoniyatlari, ulardan foydalanish imkoniyatlari kabi o‘zaro bog‘liq element va omillardan tashkil topgan mavjud texnologik hamda ijtimoiy muhitdagi yangiliklar va boshqalar faoliyatining innovatsion sohasidir”.⁷

“L.I.Pugina tashqi ko‘rinishga emas, balki innovatsion tizimlarning muhim tomoniga – o‘zaro bog‘liqlik mexanizmiga e’tibor qaratadi. Ushbu pozitsiyadan innovatsion tizim innovatsion faoliyatni amalga oshirish natijasida kelib chiqadigan aniq ob’ektda tashkiliy va iqtisodiy munosabatlar sifatida taqdim etiladi. Binobarin, innovatsion tizimning asosini ushbu tizimda innovatsiyalarni amalga oshirishning tashkiliy iqtisodiy mexanizmi tashkil etadi”.⁸

Bundan tashqari mahalliy olimlardan B.K.G‘oyibnazarov va boshqalar tomonidan chop etilgan “Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik – mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini yuksaltirish omili” nomli monografiyasida “... jahon iqtisodiyotining globallashuvi natijasida zamonaviy iqtisodiy jarayonlarning innovatsion yo‘naltirilganligi sharoitida kichik biznes sub’ektlarining innovatsion faoliyatini rivojlantirish, mazkur faoliyatni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimi samaradorligini oshirish, respublikamizda kichik biznes sub’ektlarining innovatsion faoliyati boshqaruv mexanizmini takomillashtirish va uning samaradorligini oshirish masalalari”⁹ yoritib berilgan.

R.H.Ayupov, G.R.Baltabaeva “... Tadbirkorlik yondashuviga asosan, innovatsion faoliyat – yangi mahsulotni uning haqidagi g‘oya hosil bo‘lishidan to uning o‘zlashtirilishi, ishlab chiqarilishi, sotish va tijoriy samara olinishigacha bo‘lgan jarayon tushuniladi”.¹⁰

⁷ Бляхман Л.С. Экономика, организация управления и планирование научно-технического прогресса [Текст] / Л.С. Бляхман. – М.: Высшая школа, 1991. – 228 с.

⁸ Пугина Л.И. Содержание инновационных систем и механизм их функционирования [Электронный ресурс] / Л.И. Пугина // Современная экономика: проблемы, тенденции, перспективы, 2011 г. № 5. Режим доступа: [http://www.mivlgu.ru/site_arch/educational_activities/journal_ec/journal_arch/N5/pugi na.pdf](http://www.mivlgu.ru/site_arch/educational_activities/journal_ec/journal_arch/N5/pugi%20na.pdf)

⁹ B.K.G‘oyibnazarov, H.O.Rahmonov, Sh.I.Otajonov, D.S.Almatova. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik – mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini yuksaltirish omili. Monografiya – T.: Fan, 2011. – 184 b.


¹⁰ R.H.Ayupov, G.R.Baltabaeva. Kichik biznes va tadbirkorlikda innovatsion rivojlanish yo‘nalishlari. Monografiya. – T.: Fan va texnologiya, 2018, – 232 b.

Yuqoridagi qarashlarni inobatga olgan holda, xulosa qilish mumkinki, innovatsion tizim makon va vaqt ichida innovatsiyalarning ko‘plab elementlari va omillarini o‘z ichiga oladi. Ularni rivojlantirish va amaliyotga tadbiq etish hamda tarqatish uchun makro-mikromuhitni birlashtirish lozim. Har qanday innovatsion tizim faoliyatining yakuniy maqsadi bo‘lib, bu innovatsiyalarni joriy etish asosida iqtisodiy voqelikning sifat jihatidan o‘zgarishiga olib keladi.

Innovatsion tizimlarni turli darajalarda amalga oshirish mumkin. Jumladan: xalqaro, milliy, hududiy, tarmoqlar va sohalar, sanoat majmualari va korxonalarining innovatsion tizimlari.

Hududlarni innovatsion rivojlanishida KBXT sohasiga zamonaviy ilmiy nazariya va amaliyotda hududiy tizimning innovatsion rivojlanishi asosan hududlarning barcha quyi tizimlarini qamrab oladigan yangiliklarni yaratish va amalga oshirish bo‘yicha faoliyat sifatida qarash mumkin. Hududlarda intellektual salohiyatdan samarali foydalanish, yangi tadbirkorlik, ilmiy va ta‘lim hududiy tuzilmalarining mentaliteti va tafakkurini oshirish lozim. Hududlarni innovatsion rivojlanishining asosiy maqsadi KBXTning barcha sohalarida innovatsiyalarni yaratish va amalga oshirishni ta‘minlashdan iborat. Bunday aloqalar hududlarda uzoq muddatli va ko‘p qirrali innovatsion infratuzilmani rivojlantirish orqali yangi g‘oyalar, bilimlar va texnologiyalarni yaratishga olib keladi.

Hududlarni innovatsion rivojlanishining bir qancha funksiyalari mavjud. Jumladan, birinchidan, hududlarga yuqori texnologik liniyalarini joriy qilish, ikkinchidan, hududlarda KBXTni innovatsion rivojlantirish maqsadida qo‘llabquvvatlash va rag‘batlantirish, uchinchidan, hududlarda turli xil muammolar mavjud, ushbu muammolarni o‘z vaqtida hal etish, to‘rtinchidan, hududlarda bozor infratuzilmalarni shakllantirish lozim. Hududlarni innovatsion rivojlanish funksiyalari 1.1-rasmda keltirilgan.



1.1-rasm. Hududlarni innovatsion rivojlanish funksiyalari¹¹.

2-rasmdagi hududlarni innovatsion rivojlanishida KBXT faoliyatiga ta'sir qiluvchi omillar tasnifi qayd etilgan. Bular hududlar iqtisodiyotini barqarorligini ta'minlovchi eng muhim elementlarning tizimli tahlili; iqtisodiy mexanizm rolini ochib berish; integratsion jarayonlarning rivojlanishi va uni modellashtirish; tashkiliy iqtisodiy jarayonlarni boshqarishda to'rtta asosiy blokka birlashtirilgan resurs, iqtisodiy, tashkiliy, siyosiy. Shuningdek boshqaruv organlarining huquqiy rolini oshirish lozim.

Shunday qilib, hududlarni innovatsion rivojlanishida KBXTning ahamiyati kattadir. Hududlarda KBXT sub'etlarida yangi turdagi mahsulotlarni joriy qilish orqali hududlarning iqtisodiyotini rivojlanishini ta'minlash mumkin. Hududlarda ilmiy faoliyat natijalari va texnik yangiliklarni ilgari surishga yoki ularni takomillashtirish lozim. KBXT sohasida yangi yoki modernizatsiya qilingan

¹¹ Muallif ishlanmasi

texnologik mahsulotlarga, shuningdek ushbu faoliyat bilan bog'liq qo'shimcha ishlanmalarga yo'naltirilgan ixtisoslashtirilgan faoliyat sifatida ko'rib chiqilishi mumkin. Buning natijasida esa mamlakatimiz olimlarini hududiy iqtisodiyotni barqaror rivojlanishidagi faol ishtirokini ta'minlaydi.

1.2. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiyotda tutgan o'rni.

KBXT ko'pgina rivojlangan mamlakatlarda bandlikni ta'minlash, raqobat muhitini shakllantirish, innovatsion faollikni qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy tengsizlikni yumshatish bo'yicha muhim ijtimoiy-iqtisodiy funksiyalarni bajarib, iqtisodiyotning ajralmas qismi bo'lib hisoblanadi. Kichik tadbirkorlikka an'anaviy tarzda iqtisodiyotning o'sish sur'atini ko'tarish va aholining turmush farovonligini oshirish bo'yicha katta ishonch yuklatiladi.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgan ilk kunlaridan boshlab, barcha sohalar qatori KBXTni rivojlantirish va uni yangi bosqichlarga olib chiqishning strategiyasini belgilab oldi. Bozor tamoyillarini bosqichma-bosqich joriy etish yo'nalishida amalga oshirilayotgan KBXT sohasini rivojlantirish bugungi kunning dolzarb mavzusiga aylangan.

Mamlakatimizning iqtisodiy salohiyatini yanada yuksaltirish, halqaro munosabatlarda obro'-e'tiborini oshirish, eksport darajasining ortishida KBXTning o'rni kattadir. Ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, tayyorlanayotgan mahsulotlar sifatini yanada oshirish, zamonaviy texnika-texnologiyalarni tezlik bilan amaliyotga joriy etish, chet el investitsiyalarini jalb etish natijasida mehnatga layoqatli aholini ish bilan ta'minlash, yangi ish joylarini tashkil etish kabi dolzarb muammolarni samarali hal etishda KBXT sub'ektlarining o'rni muhim hisoblanadi.

KBXT har bir mamlakatni iqtisodiy rivojlantirish uchun muhim harakatga keltiruvchi kuch hisoblanadi. KBXTning rivojlanishiga, ichki bozorni yangi mahsulot va xizmatlar bilan to'ldirilishiga, innovatsion va investitsion loyihalarni samarali amalga oshirilishiga, yirik biznes bilan kooperatsion aloqalarni rivojlantirishga, pirovardida, eksport salohiyatini oshirish, valyuta tushumlarini ko'paytirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Rivojlangan mamlakatlarda KBXTni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanib, ushbu siyosatni samarali amalga oshirishda KBXTning joriy va istiqbolli holati haqidagi statistik axborotlar yig‘ilib, mazkur ma‘lumotlarga yuqori talab qo‘yiladi.

KBXTni rivojlanishi jahon mamlakatlarining iqtisodiy siyosatini yuritishda muhim dastak sifatida, ya‘ni ishchi kuchi bandligini oshirishdagi asosiy soha sifatida; iqtisodiyotni innovatsion qobiliyatini rivojlantiruvchi manba sifatida; ishlab chiqarish faoliyatini yangilovchi, yangiliklarni qidiruvchi va tadbiq qiluvchi sifatida; davlat budjetini to‘ldiruvchi sifatida (turli soliqlar orqali); ishlab chiqarish faoliyatini pasayishini oldini oluvchi omil sifatida namoyon bo‘lmoqda. KBXT mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy ahvolini istiqbolda yanada yaxshilovchi, iqtisodiyotni raqobatbardoshligini oshiruvchi asosiy omillardan biridir. Masalan, Hindiston, Albaniya va Braziliya mamlakatlarida ishsizlikni kamaytirish va qashshoqlikka qarshi kurashish vositasi sifatida rivojlantirilsa; Fransiya, Buyuk Britaniya, Germaniya, Belgiya va Ispaniya kabi mamlakatlarda ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy barqarorlikni ta‘minlash, shu bilan birga aholining o‘rta qatlamini shakllantirish; Isroil va AQShda iqtisodiyotning birmuncha sekinlashishi yoki orqaga qaytishini oldini olish (retsessiyani yo‘q qilish) vositasi sifatida; Kanada, Meksika, Yaponiya va Singapurda yangi bozorlarni yaratish vositasi sifatida; Polsha, Chexiya, Vengriya, Slovakiya va Xitoyda iqtisodiy islohotlarni tezlashtirish omili sifatida KBXT rivojlantiriladi. O‘zbekistonda esa, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bilan bir qatorda, qo‘shimcha ishchi o‘rinlarini yaratish orqali aholini ish bilan bandligini oshirish va turmush darajasini yaxshilash maqsadida KBXT sohasi rivojlantirilmoqda. Shuning uchun ham, mamlakatimizda mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni, shuningdek aholini ish bilan bandligini ta‘minlashda, iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishda KBXTni rivojlantirish muhim yo‘nalish sifatida belgilab berildi.

Ma‘lumki, kichik tadbirkorlikning rivojlanishini ifodalovchi statistik ko‘rsatkichlar tarkibi, ularning to‘liq, aniq, ishonchli va o‘z muddatida tashkil etilishi bilan chambarchas bog‘liq. KBXT statistikasi bu statistikaning yangi sohasi

hisoblanib, ushbu sohani rivojlantirish borasida mamlakatda qator kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Hozirgi kunda KBXT sub'ektlarida statistik kuzatish, statistik axborotlarni yig'ish va ularni qayta ishlash masalalari xalqaro tajribalar asosida tashkil etilishiga alohida e'tibor berilib, mazkur sub'ektlarning tarmoq xususiyatlaridan kelib chiqqan holda tashkiliy shakllari, o'rtacha yillik xodimlar soni, statistik ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash va ularning ko'rsatkichlar tizimi, shuningdek, mazkur sub'ektlarda statistik kuzatishlarni tashkil etish hamda ularni yanada takomillashtirish bo'yicha huquqiy-me'yoriy hujjatlar bazasi takomillashtirilib borilmoqda.

Hozirgi kunda qambag'allikni qisqartirish va aholi farovonligini oshirish maqsadida mamlakatimizda bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda. Shulardan asosiysi aholi bandligini ta'minlash hisoblanadi. Aholi bandligini ta'minlashda o'zini o'zi band qilish eng asosiy masalalardan biri bo'lib hisoblanadi. Shunday ekan mamlakatimizda o'zini o'zi band qilgan tadbirkorlarga bir qancha qulayliklar yaratilib kelinmoqda.

O'zini o'zi band qilgan tadbirkorlarga 2020 yil 1 iyuldan boshlab quyidagi imkoniyatlar joriy qilindi:

→ "o'zini o'zi band qilgan shaxslarni ro'yxatga olish xabar berish tartibida o'zini o'zi band qilgan sifatida ro'yxatdan o'tganlikni tasdiqlovchi matritsali shtrix kod (QR-kod) bergan holda maxsus mobil ilova yoxud soliq to'lovchining shaxsiy kabineti orqali amalga oshiriladi hamda vaqtinchalik mehnat guvohnomalarini berish tartibi bekor qilindi;

→ o'zini o'zi band qilgan shaxslar 2020 yil uchun ijtimoiy soliqni o'zini o'zi band qilgan shaxs sifatida haqiqatda ishlagan vaqtdan qat'i nazar bazaviy hisoblash miqdorining kamida 50 foizi hajmida to'laydi hamda ushbu summa to'liqligicha budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga yo'naltiriladi va undan kelib chiqqan holda yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun o'rnatilgan tartibda pensiya hisoblash uchun daromad hajmi aniqlanadi;

– o‘zini o‘zi band qilgan shaxslar yollanma ishchilarni jalb qila olmasligi hamda ish beruvchiga ega bo‘la olmasligi to‘g‘risidagi talab saqlanib qoladi”¹².

So‘nggi yillarda mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanishni yengillashtirish va rag‘batlantirish maqsadida KBXT sohasiga oid bir qator targ‘ibotlar tanqidiy qayta ko‘rib chiqilib, eskirgan, zamon talabiga javob bermaydigan byurokratik to‘siq va g‘ovlar bekor qilindi. Natijada mamlakatimizda ishbilarmonlik muhiti yaxshilandi, tadbirkorlik sub’ektlari va xususiy investorlar uchun keng imkoniyatlar yaratilib berildi.

Bunday ijobiy o‘zgarishlar natijasida mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan KBXT sohasi nufuzli xalqaro tashkilotlar tomonidan o‘rganildi. Jahon banki va Xalqaro moliya korporatsiyasining e‘lon qilingan “Biznes yuritish — 2020” hisobotida O‘zbekiston Respublikasi 69-o‘rinni egalladi. Islohotlar miqyosi va samaradorligi bo‘yicha dunyoning eng yaxshi 20 ta islohotchi davlati qatoriga kirdi.

Mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2019 yil 20 noyabrdagi “Mamlakatda biznes muhitini yanada yaxshilash va tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4525-sonli Qarorida “Mamlakatimizda biznes yuritish muhitini yanada yaxshilash, tadbirkorlikka keng erkinlik berish borasida boshlangan islohotlarni davom ettirish hamda qabul qilingan qonun hujjatlarining joylarda to‘g‘ri tatbiq etilishini ta’minlash maqsad qilib olingan”.¹³

Mamlakatimizda ishbilarmonlik muhitiga shart-sharoitlar yaratish, imtiyozlar berish maqsadida KBXTni rivojlantirishga qaratilgan bir qancha me‘yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilingan. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 31 yanvardagi “Kichik va xususiy tadbirkorlikni mikrokreditlash tizimini yanada kengaytirish va soddalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2746-son, 2017 yil 1 fevraldagi “Tadbirkorlik sub’ektlariga davlat xizmatlarini ko‘rsatish mexanizmlarini takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi

¹² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Tadbirkorlik faoliyati va o‘zini o‘zi band qilishni davlat tomonidan tartibga solishni soddalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4742-sonli Qarori // 8 iyun 2020 yil.

¹³ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mamlakatda biznes muhitini yanada yaxshilash va tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4525-sonli Qarori // 20 noyabr 2019 yil.

PQ-2750-son, 2017 yil 23 fevraldagi “Tadbirkorlarni ishlab chiqarish maydonlaridan foydalanishlarini yanada rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2796-son, 2017 yil 17 martdagi “Tadbirkorlik sub’ektlari va keng aholi qatlamiga mikro kreditlar ajratish tizimini yanada soddalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2844-son, 2017 yil 8 avgustdagi “Hududlarning jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta’minlashga doir ustuvor chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3182-son Qarorlari hamda 2016 yil 5 oktabrdagi “Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta’minlashga, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-4848-son Farmoni va boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlar YaIM va YaHMning o‘shini ta’minlash uchun KBXT sohasini rivojlantirishda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga xizmat qiladi.

So‘nggi yillarda KBXT faoliyati bo‘yicha aholiga davlat xizmatlari ko‘rsatish tizimi isloh qilinib, ishbilarmonlik muhitini tubdan yaxshilash, ortiqcha byurokratik to‘siqlarni bartaraf etish borasida izchil chora-tadbirlar amalga oshirilib kelinmoqda.

Shu jumladan, ayrim turdagi litsenziya va ruxsatnomalar bekor qilinib, ma’muriy tartib-tamoillardan o‘tish muddatlari sezilarli ravishda qisqartirilib, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari tomonidan beriladigan bir qator ma’lumotnomalar bekor qilindi.

Shunday ekan mamlakatimiz hududlarida KBXTni tashkil etishning o‘ziga xos usullar mavjud. Shulardan biri SWOT – tahlil hisoblanadi.

SWOT – tahlil KBXTni tashkil etishning muhim usullaridan biri hisoblanib, KBXTning ichki va tashqi muhitlardagi mavjud omillarni aniqlashga yo‘naltirilgan. Ular to‘rtta toifaga ajratiladi, ya’ni, Strengths (kuchli tomonlari), Weaknesses (bo‘sh tomonlari), Opportunities (imkoniyatlari) va Threats (xavfxatarlari).

Shu jihatlarni inobatga olgan holda, mamlakatimiz hududlarida faoliyat olib borayotgan KBXTni tashkil etish va rivojlanishida keng foydalanib kelinayotgan SWOT tahlil asosida baholaymiz (1-jadval).

1-jadval SWOT tahlildan ko‘rinib turibdiki, hududlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini boshqarishda kuchli tomonlari bilan bir qatorda zaif

tomonlari ham mavjud. Shunday ekan hududlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasini boshqaruvchi rahbarlar zaif tomonlariga alohida e'tibor berishlari lozim. Aks holda hududlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni innovatsion rivojlanishida kutilgan samaradorlikka erishib bo'lmaydi.

Ma'lumki, dunyoda taraqqiy topgan davlatlarda KBXT yalpi ichki mahsulot hajmida yetakchi va hal qiluvchi o'rinni egallab kelmoqda. Hozirgi kunda respublikamizda tizimli dasturlar asosida bu sohani qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish borasida izchil ishlar amalga oshirilmoqda. Bu esa o'z navbatida mamlakatimizning iqtisodiy qudratini mustahkamlashga va YaIMni ko'paytirishga imkoniyat yaratadi.

Prezidentimiz 2020 yil 24 yanvarda Oliy Majlisga taqdim etgan Murojaatnomasida "Biz yangi ish o'rinlarini yaratadigan tadbirkorlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlashimiz, ta'bir joiz bo'lsa, ularni yelkamizga ko'tarishimiz kerak"¹⁴— deb alohida ta'kidladilar.

1.1-jadval

Hududlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini tashkil etishning SWOT tahlili¹⁵

Kuchli tomonlari (S)	Kuchsiz tomonlari (W)
----------------------	-----------------------

¹⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. //Xalq so'zi, 2020 y. 25 yanvar.

¹⁵ Ilmiy tadqiqotlar asosida muallif tomonidan tuzildi

<ul style="list-style-type: none"> – hududlar miqösida KBXTni rivojlantirish bo‘yicha davlat dasturlari ishlab chiqilganligi; – hududlarda KBXT sohasida samarali infratuzilmalar yaratilganligi; – hududlarda kichik korxonalarda eksport qilish imkoniyatlarining yuqoriligi; – hududlarda arzon ishchi kuchining mavjudligi; – hududlarda yangi texnika va texnologiyalar bilan ta‘minlanganligi; – hududlarda boy xom ashyo bazasining mavjudligi; – davlat tomonidan qulay investitsion muhit yaratilganligi; – mamlakatimizda tinch osoyishtalik hukum surayotganligi. 	<ul style="list-style-type: none"> – Hududlarda tayyorlanayotgan mahsulotlarning jahon bozorida raqobatbardoshligining pastligi; – Mahsulot va xizmatlarning eksport qilishda murakkabliklar va qiyinchiliklarning mavjudligi; – Mahsulotlarni sotish va saqlashda barcha hududlarda joylarning yetishmasligi; – Hududlarda malakali ishchi kuchining yetishmasligi; – Hududlar kichik korxonalarida investitsion loyihalarning kamligi; – Investitsiyalarning hududlarga teng taqsimlanmaganligi; – Hududlardagi kichik korxonalarining rentabellik darajasi pastligi
Imkoniyatlar (O)	To‘siq (xatar) lar (T)
<ul style="list-style-type: none"> – hududlarda KBXT sohasida mahsulot va xizmatlarni diversifikatsiyalash imkoniyatlari mavjudligi; – KBXT sohasiga hududlar kesimida kredit olish har yili aniq dastur asosida amalga oshirilishi; – hududlarni innovatsion rivojlanishida KBXTni innovatsion salohiyatini amalga oshirish imkoniyatlarining mavjudligi; – xalqaro tashkilotlar bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri mahsulot eksport qilish yuzasidan shartnomalar tuza olishi; – boshqa chet el kichik korxonalarini yoki institutsional birliklar bilan kooperatsiyalar tashkil qila olishi; – davlatimizning kichik korxonalar faoliyatini yanada qo‘llab-quvvatlash 	<ul style="list-style-type: none"> – ichki va tashqi bozorlarda narxnavoning keskin o‘zgarib turishi; – hududlarda mehnatga bo‘lgan motivatsiyaning yetarli emasligi; – hududlarda ishlab chiqarilgan mahsulotlarning sotilmay qolishi; – hozirgi globallashuv sharoitida davlatlar o‘rtasida tovar oldisotdi munosabatlarida iqtisodiy integratsiyaning o‘zilishi; – jahon bozorida raqobatning kuchayishi; – davlatlarda iqtisodiy-siyosiy o‘zgarish


bo'yicha iqtisodiy siyosat olib borayotganligi; — xorijiy bozorlarga chiqish imkoniyati kengligi; — kichik korxonalariga integratsion jarayonlarni keng yo'lga qo'yilganligi	
--	--

Shu nuqtai nazardan, KBXT sohasini innovatsion rivojlanishini hududlar miqyosida ta'minlash va ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, hamda YaIM va YaHMDagi ulushini oshirish borasida qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish kabi yo'nalishlarda tizimli chora-tadbirlar amalga oshirib kelinmoqda. Biroq, respublikamizning barcha hududlarida KBXTni rivojlantirish jarayonlari barqaror yuksalyapti deb bo'lmaydi.

Shu sababli, hududlarda KBXTni rivojlantirish jarayonlarining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini yanada takomillashtirish va samaradorligini oshirish, ularning tashqi iqtisodiy faoliyatdagi rolini kuchaytirish, aholini ish bilan bandligini ta'minlash orqali daromadlarini ko'paytirish imkoniyatlaridan to'laqonli foydalanish, hududlarda KBXT sub'ektlarining turli darajalarda rivojlanish omillari va tendensiyalarini zamonaviy statistik usullarda baholab, hududlarning innovatsion rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.


Ta'kidlash joizki, mamlakatimizda olib borilgan iqtisodiy islohotlar natijasida yaratilayotgan YaIMning sezilarli qismi KBXT sohasiga to'g'ri kelmoqda.

Tahlillar shundan dalolat beradiki, mamlakat YaIMni yaratishda KBXT eng katta salmoqqa ega bo'lib, 2010 va 2021 yillarda mos holda 52,5 va 54,9 foizni tashkil etib, taqqoslanayotgan yillarda 2,4 foiz punktga oshganini ko'rishimiz mumkin (1.2-rasm).



1.2-rasm. O‘zbekiston Respublikasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning YaIMdagi ulushi, foizda¹⁶

Kichik biznesning YaIMdagi ulushining ko‘payishi KBXT tomonidan yetishtirilayotgan mahsulotlar hajmini oshirish borasida olib borilayotgan islohotlar natijasidir. Mamlakatimizda YaIM hajmi 2021 yilda 2010 yilga nisbatan 199,6 foizni tashkil etgan bo‘lsa, KBXTning YaIMdagi ulushi ushbu davrda 2,0 martadan ziyodga o‘sganligini ta’kidlash joiz (1.3-rasm).



1.3-rasm. Kichik biznesning YaIMdagi ulushi dinamikasi, foizda¹⁷

Mamlakatimizda KBXT sohasida yaratilayotgan imkoniyatlar natijasida investitsiyalarda ushbu sohaning ulushi 2010 yilda 28,5 foizni tashkil qilgan bo‘lsa, 2021 yilda ushbu ko‘rsatkich 47,9 foizni tashkil qilmoqda (1.2-jadval).

¹⁶ O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari

¹⁷ O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlar asosida muallif tomonidan hisoblangan.

1.2-jadval

O'zbekiston Respublikasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni iqtisodiyotning asosiy turlaridagi ulushi, foizda¹⁸

	2010	2011	2012	2013	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021
Yalpi ichki mahsulot	52,4	54,0	54,6	55,8	56,1	62,9	64,9	65,3	62,4	56,0	55,5	54,9
Sanoat	28,6	28,6	29,7	33	36,8	40,6	45,3	41,2	37,4	25,8	27,9	27,0
Qishloq xo'jaligi	97,4	97,2	97,2	97,3	97,5	98	98,6	98,5	98,3	97,9	96,7	96,7
Investitsiyalar	28,5	31,9	35,3	32,7	35,4	40,3	40,9	38,1	38,0	44,3	46,0	47,9
Qurilish	57,5	67,6	70	70,6	69,5	66,7	66,9	64,8	73,2	75,8	72,5	72,4
Savdo	85,1	86,7	87,3	86,6	86,3	87,1	89,6	88,4	86,3	83,6	82,3	82,1
Jami xizmatlar	56,1	55,6	56	56,2	59,1	60,2	63,2	58,3	56	53,2	51,8	51,1
Yuk tashish	39,1	41,2	41,5	44,0	47,9	50,1	53,7	54,2	55,5	54,4	51,6	49,4
Yo'lovchi tashish	77,8	77,4	79,1	82,1	83,2	84,8	88,8	90,1	89,6	90,4	93,5	92,8
Bandlik	74,3	75,1	75,6	76,7	77,6	77,9	78,2	78,2	76,3	76,2	74,5	x
Eksport	13,7	18,8	14,0	26,2	27,0	27,0	26,0	27,0	27,2	27,0	20,5	22,3
Import	35,8	34,3	38,6	42,4	45,4	44,5	46,8	53,6	56,2	61,6	51,7	48,7

Tarmoq va sohalar bo'yicha KBXTning ulushi tobora oshib bormoqda. Bunga asosiy sabablardan biri mamlakatimiz hukumati tomonidan tadbirkorlikka qulay sharoit-sharoitlar yaratilayotganligidandir. Ushbu sohaga turli xil imtiyozlar va preferensiyalar qo'llanilib kelinmoqda. Natijada chet el investorlariga ham o'z bizneslarini boshlashga imkoniyatlar yaratilib berilayapti.

Hududlar miqyosidagi statistik tahlillar ham KBXT sohasining YaHMDagi ulushi turli darajada ekanligidan dalolat beradi. Agar 2010-2021 yillarda bu ko'rsatkichning o'rtacha yillik hissasi Qoraqalpog'iston Respublikasi, Andijon, Buxoro, Jizzax, Namangan, Samarqand, Surxondaryo, Sirdaryo, Qashqadaryo, Farg'ona va Xorazm viloyatlarida yuqori (61,3-81,8 %) bo'lgan bo'lsa, Navoiy va Toshkent viloyatlarida nisbatan past (37,7-56,8 %) darajada bo'lgan (1.3-jadval). Bu

¹⁸ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi ma'lumotlari // www.stat.uz

esa ushbu hududlarda ishsizlik darajasini pasaytirish va aholi daromadlarini oshirish maqsadida KBXT sohasini rivojlantirishga alohida ahamiyat berishni taqozo etadi. Bunda Navoiy viloyati sanoatlashgan hudud bo'lganligi uchun ko'plab yirik sanoat korxonalari mavjud ekanligini e'tiborga olish lozimdir.

1.3-jadval

O'zbekiston Respublikasi hududlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning YaHM dagi ulushi, foizda¹⁹

	2010	2011	2012	2013	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	O'rtacha
O'zbekiston Respublikasi	63,6	66,0	63,6	64,0	64,5	66,6	61,1	58,5	57,0	56,3	57,8	56,4	61,3
Andijon	54,7	56,3	57,0	57,5	59,4	58,2	63,1	60,2	73,1	69,6	69,4	71,8	67,5
Buxoro	64,1	65,7	65,9	66,8	67,0	66,9	68,4	69,9	80,9	74,3	75,3	75,4	72,5
Jizzax	77,3	79,8	79,2	79,9	79,9	82,5	83,4	85,6	86,2	83,1	83,4	81,2	81,8
Kashkadaryo	55,0	56,2	51,4	51,4	51,5	51,3	54,9	63,6	72,7	70,8	71,1	69,0	62,4
Navoiy	34,4	35,9	35,7	36,1	36,9	39,4	38,8	40,4	42,3	40,7	36,6	37,1	37,7
Namangan	76,0	78,7	78,4	79,5	79,7	77,6	78,7	80,8	80,5	75,9	74,9	73,5	77,9
Namangan	73,6	76,2	75,9	77,1	77,4	80,0	80,1	82,6	80,8	75,2	74,8	73,4	77,3
Qorxonدارvo	71,7	73,8	73,7	74,1	74,5	76,7	78,7	79,5	81,2	78,8	77,9	77,3	76,4
Sirdaryo	77,4	79,8	76,7	77,3	77,7	74,1	74,4	77,9	77,8	69,8	70,9	69,2	72,8
Toshkent	54,7	57,2	54,6	55,3	56,2	55,7	56,2	65,6	58,9	51,3	50,2	46,8	56,8
Fartona	59,5	61,2	60,3	61,1	62,1	70,8	72,6	71,7	71,3	69,3	68,8	69,9	66,6
Xorazm	71,8	74,1	73,3	73,1	73,1	76,3	78,2	79,7	79,1	76,4	76,3	73,9	75,5
O'rtacha	64,1	66,2	64,3	64,9	65,4	67,0	62,9	61,4	72,4	68,8	67,5	66,5	68,2

KBXT sohasida innovatsion jarayonlarni jadallashtirish xarajatlarni pasaytirib, bozorda o'z o'rnini egallashga imkoniyat yaratadi, mahsulotlar hajmini va foyda miqdorini ko'paytirib, tadbirkorlik samaradorligini oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning zamonaviy bosqichida innovatsion faoliyat respublikamiz hududlari iqtisodiyoti rivojlanishida eng muhim omillardan biriga aylanishi lozim. Shu bois, fan-texnika taraqqiyoti natijalarini ishlab chiqarishga muntazam joriy etib bormasdan, innovatsiya faoliyatini jadallashtirmasdan ichki va

¹⁹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi ma'lumotlari // www.stat.uz

tashqi bozorda raqobatbardosh tovar va xizmatlar ishlab chiqarish mumkin emasligi inkor qilib bo'lmaydigan haqiqatdir.

O'zbekistonda KBXTni viloyatlarning xususiyatlaridan kelib chiqib ba'zi bir sohalar bo'yicha imtiyoz va rag'batlantirishlarni berish orqali ularning tarmoq tizimini tuzish maqsadga muvofiq bo'lar edi. Bizning fikrimizcha, mamlakatimizning aholi zich joylashgan, ortiqcha ishchi kuchlari mavjud bo'lgan hududlarida (masalan, Farg'ona vodiysi, Toshkent, Samarqand, Buxoro va Xorazm viloyatlari) tadbirkorlikni rivojlantirish orqali, aholining ish bilan ta'minlanish darajasini va turmush farovonligini oshirishga erishish mumkin. Bunda quyidagilarga e'tiborni qaratish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

1. Aholi zich joylashgan viloyatlarda tadbirkorlikni tarmoqlar va ixtisoslashuv bo'yicha tashkil etish kerak. Masalan, turizmni rivojlantirish imkoniyati mavjud bo'lgan hududlarda turizm bilan bog'liq imtiyozlar va rag'batlantirishlar berilishi kerak. Paxta xom ashyosini yetishtiruvchi viloyatlarda paxtadan tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishga mo'ljallangan, meva sabzavotchilikka ixtisoslashgan hududlarda esa ularni chuqur qayta ishlashga mo'ljallangan kichik biznes sub'ektlariga va tadbirkorlarga imtiyozlar berish;

2. Tadbirkorlarni rag'batlantirish maqsadida ularga beriladigan imtiyozlar miqdori, bu xo'jalik sub'ektlari tashkil etadigan qo'shimcha ishchi o'rinlari soniga to'g'ri proporsional ravishda bo'lishi maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Bunda ularda yaratiladigan yangi ish o'rinlari soniga qarab tabaqalashtirilgan tarzda soliqqa tortish tartibini qo'llash, kichik korxonalaridan olinadigan yagona soliqqa soliq ta'tillari berish va korxonada ixtiyorida qoladigan soliqlar summasini maqsadli ravishda korxonada faoliyatini kengaytirish va modernizatsiyalashga yo'naltirilishini belgilab qo'yish lozim. Ushbu beriladigan barcha imtiyozlar tashkil etilgan tadbirkorlik hududining ixtisoslashuvidan kelib chiqib maqsadlilik xarakteriga ega bo'lishi lozim;

3. Tadbirkorlik hududlarida moliyaviy qo'llab quvvatlashni yo'lga qo'yish. Bunda tadbirkorlik turidan kelib chiqib maqsadli subsidiyalar, imtiyozli kreditlar berish;

4. Tadbirkorlarga konsultativ xizmatlar ko'rsatish, ular uchun maxsus treninglar o'tkazish;

5. Tadbirkorlikda ishlab chiqarishni, ishlab chiqarilgan mahsulot sifatini oshirish maqsadida konkurslar tashkil etish.

1.3. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlanishi bo'yicha xorijiy tajribadan foydalanish yo'nalishlari

Rivojlangan mamlakatlarda, asosan, KBXT sub'ektlarini innovatsion rivojlantirish davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning murakkab mexanizmlari ishlab chiqilgan. Ushbu sohada innovatsiyalarni rag'batlantirishda quyidagilarga e'tibor qaratishadi: birinchidan: tadqiqot va ilmiy izlanishlarni rivojlantirishga, ikkinchidan: tadqiqot natijalari va ilmiy-texnika yutuqlarini amalga oshirishga, uchinchidan: innovatsion jarayon ishtirokchilari bo'lgan xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning hamkorligini rag'batlantirishga.

Innovatsion rivojlantirish yo'nalishlaridan biri turli ko'rinishdagi texnologik va moliyaviy yordam dasturlari hisoblanadi. Mazkur yo'nalish hududni innovatsion rivojlanishida KBXT ni qo'llab-quvvatlashga bevosita aloqador bo'lib, KBXT innovatsion faoliyatini to'g'ridan-to'g'ri moliyalashtirish ya'ni kredit va subsidiyalar berish, ilmiy izlanishlar hamda ishlanmalarga maqsadli grantlar ajratish, hudud miqyosida innovatsiyalarni amaliyotga joriy etish maqsadida pul mablag'lari bilan ta'minlashni yo'lga qo'yish, soliqqa tortish mexanizmini soddalashtirish, innovatsiya yo'nalishida ilmiy ishlar olib borayotgan ilmiy tadqiqot muassasalari va oliy o'quv yurtlarini imtiyozli soliqqa tortish ya'ni to'lanishi lozim bo'lgan davlat bojini kamaytirish yoki bir muddatga bekor qilish va shu kabilar.

Ushbu chora-tadbirlar, masalan, "Qo'shma Shtatlarda 1982 yilda (1992 yildan tuzatilgan) qabul qilingan "Kichik biznesning innovatsion faoliyatini rivojlantirish to'g'risida"gi qonun bilan ta'minlangan. Ushbu Qonun asosida ishlab chiqilgan eng samarali milliy dasturlar qatoriga Kichik va o'rta biznesni innovatsion rivojlantirish dasturi kiradi (ingliz. – Small Business Innovation Research Program – Kichik biznesni innovatsion tadqiqotlar dasturi (KBITD)), shuningdek, KO'Bga yangi texnologiyalarni tarqatish (ingliz. Small Business Technology Transfer Program –

Kichik biznes texnologiyalari transferi dasturi (KBTTD)). Ushbu dasturlar AQSh kichik biznes ma'muriyati tomonidan muvofiqlashtiriladi va raqobatbardosh dastur orqali budjet mablag'lari hisobidan ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalar uchun mablag' ajratiladi. Masalan, KBITD dasturi 10 ta yirik milliy agentliklar va federal vazirliklarning ilmiy-texnik muammolarini hal qiladi, ularning har biri kichik va o'rta biznes tomonidan tadqiqotlar va ishlanmalar uchun 100 million dollardan ko'proq mablag' ajratishi mumkin. Shu bilan birga, moliyaviy qo'llab-quvvatlashning turlari, miqdori va ilmiy-tadqiqot ishlarining tematik rejalarini tayyorlash kafedralar tomonidan mustaqil ravishda belgilanadi, shuningdek kompaniyalar takliflari istiqbollari baholash va shartnomalar, grantlarni tarqatish bo'yicha tanlovlarni o'tkazish va subsidiyalar ajratiladi. Ushbu dastur raqobatbardosh bo'lganligi sababli, korxonaning malakasini baholash, taklifning o'ziga xosligi, uning foydasi va tijoratlashtirish istiqbollari amalga oshiriladi. KBITD doirasida har yili qiymati 2 milliard AQSh dollaridan ziyod 6000 dan ortiq loyihalar amalga oshirilmoqda, ammo yakuniy bosqichga barcha loyihalarning uchdan biridan ko'pi o'tmaydi".²⁰

AQShda innovatsion texnologiyalarni rivojlantirish "Kichik biznes texnologiyalari transferi dasturi" asosida yo'lga qo'yilgan bo'lib, unda kichik biznesning faoliyati notijorat ilmiy izlanishlar institutlari bilan to'g'ridan-to'g'ri xamkorligi rag'batlantiriladi. KBTT dasturi o'z navbatida innovatsion jarayonlarni yuksaltirishga qaratilgan turli yo'nalishlardagi qo'shma korxonalarni vujudga keltirishda moliyaviy va texnik ko'rinishdagi yordam olishga ko'mak beradi. Qayd etilgan KBTTD orqali har yili 1000 dan ortiq innovatsion rivojlantirish loyihalari amalga oshiriladi. Dasturning asosiy vazifasi asosan raqobat bozorida ehtiyojga ega va ichki iqtisodiyoti uchun juda muhim ahamiyatga ega bo'lgan yuqori darajadagi texnologiyalar va innovatsion mahsulotlar ko'rinishidagi ilmiy ishlanmalarni amaliyotga joriy qilishdir. Bu ishlanmalarni tijoratlashtirish orqali AQSh iqtisodiyoti rahbatlantiriladi va rentabellikni ta'minlaydi.

²⁰ What is SBIR and STTR? – <https://sbir.nih.gov/about/what-is-sbir-sttr>

AQShda yana bir boshqa dastur “Kichik biznesni tadqiq etish va rivojlantirish samaradorligini o‘rganish”, hamda “Kichik biznes investitsiya kompaniyasi” (ingliz. – Small Business Investment Company – KBIK) mazkur dastur orqali kichik biznes va o‘rta korxonalarini investitsiyalar bilan ta‘minlaydi hamda ular faoliyatini kafolatlaydi.

“Buyuk Britaniyada eng yangi texnologiyalarni qo‘llash bo‘yicha samarali dasturlar ishlab chiqilgan bo‘lib, bu yerda kichik biznes xizmati innovatsion KO‘Klarni aniqlash va baholash uchun 10 ming funt sterlinggacha bo‘lgan grantlar asosida axborot, maslahat, moliyaviy, huquqiy va texnik ko‘mak beradi. Eng yaxshi texnologiyalar, ushbu texnologiyalarning innovatsion mahsulotlarni yaratishda imkoniyatlarini aniqlaydi. Murakkab texnologiyalarni izlash va ulardan foydalanish uchun imtiyozli kreditlar va subsidiyalar ajratiladi”.²¹

Innovatsion faoliyatni amalga oshirishning muhim muammolaridan biri bo‘lib bu innovatsion ishlanmalarni himoya qilishning samarali vositalarini yaratishdan iboratdir. Buning sababi texnik ko‘rinishidan murakkab bo‘lgan innovatsion mahsulotlarni ishlab chiqaradigan bir qator kichik va o‘rta biznes faoliyatini sertifikatlash uchun to‘lanishi lozim bo‘lgan mablag‘larni o‘zlari to‘lay olmasliklaridadir.

Yaponiya davlati Amerika Qo‘shma Shtatlari modeliga asoslanib, innovatsion ishlab chiqarishdagi KBXT huquqlarini ro‘yxatdan o‘tkazish va uni himoya qilish tizimini takomillashtirish bo‘yicha bir qator tashkiliy va qonunchilik choralarini ishlab chiqqan.

Yaponiyada, kichik va o‘rta biznes sub‘ektlari uchun innovatsion faoliyatni rivojlantirish va uni takomillashtirish strategiyasini ishlab chiquvchi tashkilot sifatida Iqtisodiyot, savdo va sanoat vazirligi tomonidan amalga oshiriladi. Bu esa, ayniqsa yuksak rivojlangan sanoat korxonalaridagi yuqori texnologiyali va fan yutuqlarini ko‘p talab qiladigan kichik va o‘rta biznes ko‘rinishidagi korxonalariga o‘z ta‘sirini ko‘rsatadi. Innovatsion ishlab chiqarish borasida kichik va o‘rta biznes faoliyati huquqlarini himoya qilish va innovatsion mahsulotlarni xalqaro

²¹ https://www.sba.gov/sites/default/files/articles/SBIC_Program_-_Standard_One-Pager.pdf

standartlarga to‘liq mos kelishi borasida tovar belgilari, patentlar va patentlashtirish to‘g‘risidagi qonunlarni takomillashtirish masalalari ham chetda qolmagan. Shu bilan birga, yuqori muvaffaqiyatga erishgan innovatsion tadbirkorlarni qo‘llab quvvatlashga qaratilgan (kutilmagan holatlarda) sug‘urta tizimini o‘z ichiga olgan infratuzilma yaratilgan.

“Yaponiya o‘z mahsulotlarini jahon bozorlariga tez sur‘atlarda olib chiqish uchun tadqiqot va ishlanmalar natijalarini tijoratlashtirishni tezlashtirishga qaratilgan. Ushbu maqsadlar uchun hukumatning xususiy buyurtmalari bo‘yicha istiqbolli tadqiqotlar va ishlanmalarga budget mablag‘lari 35 foizga, yosh olimlarga yordam 23 foizga oshirilgan. KO‘Blar, universitetlar va ilmiy-tadqiqot institutlari o‘rtasidagi sinergiyani tiklash uchun innovatsion sho‘ba korxonalarini tashkil etish uchun 550 million AQSh dollari ajratilgan. Hukumat keyingi besh yil (2021-2025) yillar ichida universitetlar tomonidan berilgan patentlar sonining o‘n baravar ko‘payishini rejalashtirmoqda. Mamlakatning raqobatbardoshligini oshirish bo‘yicha choratadbirlar majmuasi yangi tashkil etilgan yuqori texnologik KO‘Bning ikki baravar ko‘payishi bilan bog‘liq. Yaponiyadagi kichik va o‘rta biznes sub’ektlarini moliyaviy qo‘llabquvvatlashning 85 foizini tashkil etadi”.²²

E’tiborli jixatlardan yana biri bu Yaponiya ilmiyizlanishlar institutlari, bir qator ta’lim muassasalari va yangi texnologik rivojlanish markazlari tizimida qo‘shma innovatsion kichik va o‘rta biznes korxonalarini tashkil etish borasida maxsus soliq imtiyozlarining berilganligi. Jumladan, qayd etilgan kichik va o‘rta biznes korxonalariga patent berish xizmatlarining narxi 50 foizgacha kamaytirilgan va shu bilan birga ular uch yil muddatga patent boji to‘lashdan ham ozod qilingan.

Yaponiyada ixtisoslashgan venchur tadbirkorlikni qo‘llabquvvatlash markazlari mavjud bo‘lib ularda innovatsiyalar, kichik va o‘rta biznesni boshqarish, informatsion texnologiyalari kabi mavzularda ma’ruzalarni amalga oshiradi. Shu bilan birga markaz innovatsion faoliyat borasida ilg‘or tajribani monografik usul orqali yanada kengroq ommalashtirish uchun eng yuqori natijani qo‘lga kiritgan

²² 2020 White Paper on Small and Medium Enterprises in Japan. – METI: Small and Medium Enterprise Agency. April 2020. – P. 28.

tadbirkor, samarali biznes usuli, innovatsiyalar va yangiliklarni qo'llash bo'yicha muvaffaqiyatga erishilgan yutuqlar borasidagi ma'lumotlarni yig'adi.

Yaponiya hukumatining tashabbusi bilan kichik va o'rta biznesni innovatsion tadqiqotlarini tashkil etish bo'yicha ixtisoslashtirilgan portal yaratilgan bo'lib unda KBITD/KBTDD asoschilarining tematik rejaları va mavjud ilmiy-tadqiqot institutlarining faoliyati haqidagi ma'lumotlar operativ ravishda taqdim etiladi. Shu bilan birga, internetdan foydalanuvchilarga belgilangan mavzular bo'yicha ijobiy natijalar bilan yakunlangan innovatsion tadqiqotlar haqidagi ma'lumotlarni topishga imkon beruvchi maxsus qidiruv sayti yaratilgan.

“Janubiy Koreyada venchur kapital va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash uchun maxsus tuzilmalarni yaratish bilan bir qatorda, eng istiqbolli tadqiqot va innovatsion kompaniyalarni maqsadli moliyalashtirish uchun kredit tashkilotlarini yaratish bo'yicha bir qator tadbirlar amalga oshirilgan. “Kichik va o'rta biznes sohasidagi faol ijodiy faoliyatni qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida” (The Temporary Law concerning Measures for the Promotion of the Creative Business Activities of) va “KO'Blarni innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash to'g'risida”gi qonun hujjatlarida startaplar uchun imtiyozli kreditlar va subsidiyalar ajratish ko'zda tutilgan”.²³

“Janubiy Koreyada KO'Blarni davlat tomonidan qo'llabquvvatlash va rivojlantirish 8 ta texnik qo'llab-quvvatlash dasturlarini va 35 ta moliyaviy yordam sohasida amalga oshirilishini ta'minlaydi. Ular ko'chmas mulk qurilishi, kadrlar tayyorlash, mutaxassislar uchun xorijiy stajirovkalar, ko'rgazmalar tashkil etish, sanoat mahsulotlarini xalqaro talablarga muvofiq sertifikatlash, muzokaralarda vositachilik, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish va boshqalar shular jumlasidandir. Hukumat darajasida innovatsion KO'Blar uchun infratuzilmani qo'llab-quvvatlashni amalga oshiradigan ixtisoslashgan agentlik hamda Kichik va O'rta Biznes Korporatsiyasi hisoblanadi. U tadqiqot va ishlanmalarni tijoratlashtirish uchun o'rta muddatli (5 yilgacha) kreditlar beradi, shu bilan birga kredit miqdori oshirilishi mumkin, bu bozor uchun ma'lum bir innovatsion rivojlanish

²³ A Summary of SBC's Policy Funds. – South Korea: Small and Medium Business Corporation, 2019. – P. 4.

istiqbollariga bog‘liq. Venchur kapital kompaniyalarini qo‘llab-quvvatlash uchun ustav kapitali 250 million AQSh dollar bo‘lgan venchur kapital jamg‘armasi tashkil etilgan”.²⁴

2008 yildan e‘tiboran Janubiy Koreyada innovatsiyani rivojlantirish masalasi ikkita vazirlik tasarrufida amalga oshirib kelinmoqda, ya‘ni Bilim iqtisodiyoti hamda Ta‘lim, fan va texnologiyalar vazirliklari. Ularning asosiy funksiyalaridan biri innovatsion biznes tuzilmalari tizimiga ilmiy maslahatlar berishdan iborat.

Shuningdek, “Xitoy innovatsion KO‘Klarni moliyaviy va texnologik qo‘llab-quvvatlash dasturlarini amalga oshirishda katta yutuqlarga erishdi, bu yerda 1982 yilda ilmiy parklarni tashkil etishga asoslangan ijtimoiy-iqtisodiy yangiliklar dasturi tasdiqlangan. Keyinchalik, 1986 yilda hukumat tomonidan “863-dastur” (yoki “Yuqori texnologiyalarni rivojlantirish rejasi”) tasdiqlandi, unda quyidagilar yuqori texnologik sohalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari sifatida belgilangan: informatika va mikroelektronika; aerokosmik sanoat; optik tolali aloqa; biotexnologiya va gen muhandisligi; eng yangi energiya tejaydigan texnologiyalar; ekologik uskunalar va tabiatni muhofaza qilish vositalari; tibbiy asbob-uskunalar. 1988 yilda Pekinda tajribali yuqori texnologik zona yaratilgan bo‘lib, bu mamlakatdagi eng yirik texnoparkdir. Bugungi kunda Xitoyda texnoparklar hamma joyda tashkil etilgan bo‘lib, ularda 16 mingdan ortiq kompaniyalar ish olib bormoqda va tadqiqot ishlari bilan shug‘ullanib kelmoqda. Texnoparklar, aslida tashkiliy va hududiy jihatdan maxsus iqtisodiy zonalar bilan mos keladi va bu ularga xalqaro texnologiyalar almashinuvida ancha samarali ishtirok etish imkoniyatini beradi”.²⁵

Xitoyda KBXT sohasida innovatsion tadbirkorlikni rivojlantirish iqtisodiyotning asosiy bo‘g‘ini sanaladi. Sohani rivojlantirish uchun davlat idoralaridan tortib to xususiy texnologik va ilmiy ixtisoslashgan muassasalarga qadar ilmiytexnik rivojlanishni boshqarish katta ahamiyatga ega. Buning natijasida Fan va Texnologiya vazirligi 2003 yildan buyon o‘z faoliyatini olib bormoqda.

²⁴ A Summary of SBC’s Policy Funds. – South Korea: Small and Medium Business Corporation, 2019. – P. 4.

²⁵ Более подробно: Костюнина Г.М., Баронов В.И. Технопарки в зарубежной и российской практике // Вестник МГИМО-Университета. - 2012. - № 3. - С. 91-99.

Ushbu vazirlik negizida ba'zi ilmiy-tadqiqot institutlari tashkil etilgan. Institutlar innovatsion loyihalar va ilmiy-texnik dasturlarni ishlab chiqish hamda uni tashkiliy qo'llab-quvvatlash uchun javobgar hisoblanadi. Hozirgi paytda Xitoyda umumiy soni 110 million kishidan ortiq bo'lgan 6 millionga yaqin vositachilik ilmiy-texnik tashkilotlari ishlab kelmoqda. Bundan tashqari ustuvor innovatsion yo'nalishlar bo'yicha 140 dan ortiq texnoparklar tashkil etilgan bo'lib, ular mahalliy innovatsion texnologiyalar va boshqa innovatsion mahsulotlarni ichki va jahon bozorlariga yetkazib berish bilan shug'ullanadi.

“Hindiston davlati innovatsion tadbirkorlikni davlat tomonidan keng qo'llab-quvvatlanishi bilan ajralib turadi. Shunday ekan, dasturiy ta'minot sohasida tadqiqotlar va ishlanmalarni rivojlantirish hamda ushbu sohada eksport salohiyatini oshirish uchun hukumat eksport qiluvchi korxonalarini yaratishda ishtirok etadigan mustaqil dasturiy ta'minot texnologiyalari parklari assotsiatsiyasini (STPI, Software Technology Parks of India) tashkil etgan. Uning tarkibiga 9 ta (HDTTP-Hindistonning dasturiy ta'minot texnologiyalari parklari) texnoparklari kiradi, ularning infratuzilmasi foydalanuvchilarga ofis va ishlab chiqarish binolari, uskunalari va aloqa vositalari bilan ta'minlashga imkon beradi. Shu bilan birga, ishlanmalarni ommaviy ishlab chiqarishga yoki chet ellik sheriklarga o'tkazishda mualliflik huquqlarini ro'yxatdan o'tkazish tizimi soddalashtirildi. Shunday qilib, innovatsion, tadqiqot va ishlab chiqarish kompaniyalarining eng murakkab infratuzilmasida keng ko'lamlil axborot almashinuviga erishildi. So'nggi yillarda axborot texnologiyalari va dasturiy ta'minot eksportini tezkor tashkil etish bo'yicha xizmatlarni ko'rsatish uchun 15 ta texnik markaz tashkil etildi. HDTTP eksportdan oldin va jo'natishdan keyingi moliyaviy yordam sxemasidan keng foydalaniladi. Bundan tashqari, HDTTP mikrokompaniyalarga uskunalari, texnika va ko'chmas mulk sotib olish uchun eng kamida 55000 AQSh dollarigacha bo'lgan miqdorda kredit beradi”.²⁶

Hozirgi jahon iqtisodiyotining globallashtirish maqsadida 2000 yildan buyon mamlakatda

²⁶ Annual Report 2013-2014. – Software Technology Parks of India, 2014

MIZlarni (maxsus iqtisodiy zonalarni) shakllantirishga karatilgan siyosat olib borilmoqda. MIZ asosan mamlakatning eksport-import siyosatining maxsus strategiyasi amalga oshirib kelmoqda. Ushbu strategiyani amalga oshirishdan maqsad eksportga yo‘naltirilgan innovatsion tadbirkorlikni rivojlantirishdan iborat.

Hududlarni innovatsion rivojlanishida KBXTning sohasini innovatsion faolligini oshirishga ko‘maklashish zarur. Hududlarda KBXT sub’ektlari faoliyati uchun qulay sharoit yaratish bilan birga hududlarda tadqiqotlar va innovatsiyalarni rivojlantirish hamda tadqiqotlar va ishlanmalar natijalarini joylarda muvaffaqiyatli moliyalashtirishni yo‘lga qo‘yishdan iborat.

Bizning ilmiy izlanishlarimiz natijasida xorijiy mamlakatlarda innovatsion kichik o‘rta korxonalar (KO‘K)ni davlat tomonidan moliyaviy qo‘llab-quvvatlash ikki yo‘nalishda amalga oshiriladi. Birinchisi, moliyaviy va texnologik qo‘llabquvvatlash bo‘lsa, ikkinchisi esa, axborot va konsalting xizmatlari orqali (1.4-jadval).

1.4-jadval

Xorijiy mamlakatlarda innovatsion KO‘Kni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash yo‘nalishlari²⁷

Yo‘nalishlar	Amalga oshirish tarkibi	Amalga oshirish vositalari
Moliyaviy va texnologik xizmatlar	Kichik va urta biznes sub’ektlarini moliyaviy, mulkiy va texnologik qo‘llab quvvatlash	Innovatsion kichik va urta biznes sub’ektlarini kreditlash, ushbu souaga ajratilayotgan investitsiyalarni ratbatlashtirish, ya’ni, ilm-fan yutuklari va yukori texnologiyali mausulotlarni ishlab chikarish, kadrlar tayyorlash dasturlari, ishlanmalarni patentlash uamda mualliflik uukukini uimoya kilish, imtiyozli solikka tortish

²⁷ Manba: Muallif ilmiy izlanishlari asosida tuzildi.

Axborot va konsalting xizmatlar	Kichik va urta biznes sub'ektlariga axborot va konsalting xizmatlarini ko'rsatish	Takdim etuvchi ishonchli axborot xizmatlari orkali kichik va urta biznes sub'ektlariga konsalting innovatsion xizmatlarni amalga oshirish, uamkorlar, kullab-kuvvatlash dasturlari va boshkalar
---------------------------------	---	---

Shuni ta'kidlash joizki, turli mamlakatlarda kichik va o'rta korxonalarni tasniflash mezonlari turlichadir. Buni hal qilishda kichik va o'rta korxonalarining xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ajratiladi. Masalan, kichik va o'rta korxonaning qanday sohaga bog'liqligiga qarab ishlovchilar soni sezilarli darajada farq qilishi mumkin. Bundan tashqari, ko'p hollarda kichik biznes tushunchasining chegaralari ob'ekt sifatida uning tadqiqot maqsadlarini hisobga olganda noaniq bo'lishi mumkin. Bizning fikrimizcha, ushbu qarashlar xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirishda ishlatiladi, chunki turli xorijiy mamlakatlardagi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarida ishlovchilar soni bir-biridan keskin farq qiladi.

1.5-jadval

Turli mamlakatlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni tasniflash mezonlari (ishchilar soni bo'yicha)²⁸

Davlatlar*	Mikro korxonalar	Kichik korxonalar	O'rta korxonalar	Kichik va o'rta korxonalar
YeI davlatlari	1-9	10-49	50-249	1-249
Avstraliya	1-9	10-49	50-199	1-199
Kanada	1-9	10-49	50-499	1-499
Yaponiya	4-9	10-49	50-249	4-249
Janubiy Koreya	5-9	10-49	50-199	5-199
Meksika	1-10	11-50	51-250	1-250
Yangi Zellandiya	1-9	10-49	50-99	1-99
Turkiya	1-19	20-49	50-249	1-249
AKSh	1-9	10-99	100-499	1-499
XXR	1-19	20-99	100-499	1-499
Rossiya	1-15	16-100	101-250	1-250
Uzbekiston	1-10	10-100	100-250**	1-250**

²⁸ Manba: har bir davlat bo'yicha internet ma'lumotlari (<https://www.oecd.org/publications/oecd-sme-and-entrepreneurship-outlook2021-97a5bbfe-en.htm>).

****Muallif taklifi:** mamlakatimizda oʻrta korxonalarda bandlar sonini shu oraliqda berish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Bizning fikrimizcha, ilmiy izlanishlar olib borish natijasida hamda rivojlangan mamlakatlar tajribalarini oʻrganib shunday xulosaga keldikki mamlakatimizda ham oʻrta korxonalarni joriy qilish vaqti keldi. Buning uchun KBXT sub'ektlarining umumiy sonidan ajratish uchun eng qulay va taqqoslanadigan asos "korxonadagi ishchilar soni" mezoni hisoblanadi. Kichik biznes toifasiga asosan mikro, kichik va oʻrta korxonalar kiradi. Respublikamizda oʻrta korxonalarda ishlovchilar sonini 100-250 kishi deb olsak maqsadga muvofiq boʻladi deb hisoblaymiz (5-jadval).

I bob boʻyicha xulosa.

Hozirgi jahon iqtisodiyoti shiddat bilan rivojlanayotgan bir paytda KBXT sohasiga innovatsion tadbirkorlikni qoʻllabquvvatlash aksariyat rivojlangan mamlakatlarda davlat iqtisodiy siyosatining muhim yoʻnalishlaridan biriga aylangan. KBXT sohasini innovatsion rivojlantirish uchun kichik, oʻrta va yirik korxonalar oʻrtasidagi kooperatsion aloqalarni kuchaytirish kerak deb xisoblaymiz.

II BOB. HUDUDLARNI RIVOJLANISHIDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK FAOLIYATINING IQTISODIY-STATISTIK TAHLILI HOLATI

2.1. Hududiy tadbirkorlik faoliyatini tavsiflovchi statistik ko‘rsatkichlar tizimi

Hududlarni innovatsion rivojlanishida KBXT faoliyatini ifodalovchi statistik ko‘rsatkichlar tizimining ahamiyati kattadir. Shunday ekan hududlarni innovatsion rivojlanishida KBXT faoliyatini ifodalovchi statistik ko‘rsatkichlar tizimini takomillashtirish maqsadga muvofiqdir. Mamlakatimizda statistik ma’lumotlarning sifati va ishonchliligini oshirish borasida tizimli ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Hozirgi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni, jumladan xalqaro statistik tashkilotlarning maxsus nashrlari, ma’lumotlar bazasida xolis va ishonchli aks ettirishni ta’minlash choralari ko‘rilmoqda.

Shu bilan birga, statistik ma’lumotlarning sifatini yanada yaxshilash, statistik ko‘rsatkichlarning to‘laqonli ma’lumot bazalarini yaratish, ularni xalqaro standart talablariga moslashtirish, ijtimoiy-iqtisodiy va KBXT sohasida statistikaning zamonaviy usullarini joriy etish zarurati mavjud.

Shunday ekan mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2020 yil 3 avgustda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasining milliy statistika tizimini yanada takomillashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4796-sonli Qarorida O‘zbekiston Respublikasining milliy statistika tizimini takomillashtirishga va 2020-2025 yillarda O‘zbekiston Respublikasi statistikasini rivojlantirishning milliy strategiyasi ishlab chiqilgan bo‘lib, uning asosiy maqsadi – mamlakatning butun milliy statistika tizimini kompleks rivojlantirish hisoblanadi,

bu esa foydalanuvchilar ehtiyojlariga javob beradigan statistikaning dolzarbligini oshirishga, statistika tizimini muvofiqlashtirish va boshqarishni takomillashtirishga yordam beradi. ²⁹Shundan kelib chiqqan holda O‘zbekistonda KBXTni davlat tomonidan qo‘llab quvvatlash mexanizmlarini statistik o‘rganish asosida statistik ko‘rsatkichlar tizimini takomillashtirishni talab etadi.


N.M.Soatov “Statistik ko‘rsatkichlar tizimi deganda ommaviy jarayonlarni va ularning belgilarini o‘zaro bog‘lanishda aks ettiruvchi bir-biri bilan bog‘langan ko‘rsatkichlar majmuasi tushuniladi³⁰” deb ta’kidlab o‘tgan.

KBXT faoliyatining statistik ko‘rsatkichlar tizimini takomillashtirish hozirgi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Hozirda O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi KBXTning statistik ko‘rsatkichlarini Yevropa hamjamiyatining Iqtisodiy faoliyat turlari statistik tasniflagichiga (NACE Rev.2) asoslangan holda umumdavlat tasniflagichi (IFUT-2) bo‘yicha hisoblanib kelinmoqda.

KBXT faoliyatini samarali tashkil etish va uning samaradorlik darajasini oshirib borish iqtisodiyotning eng dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Ishlab chiqarish resurslarining narxlari oshib, raqobat kuchayib borayotgan, tadbirkorlikda turli risklar, tasodifiy holatlari kabilarga bog‘liq muammolar mavjudligi innovatsion iqtisodiyot rivojlanishining hozirgi bosqichida yanada muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli har bir KBXT faoliyatni tashkil etish va samarali amalga oshirish uchun mavjud imkoniyatlardan oqilona foydalangan holda ish yuritish talab etiladi. Shuning uchun KBXT faoliyati statistik ko‘rsatkichlari tizimlashtirilib, keyin statistik tahlillar amalga oshirilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi. 5-rasmda KBXTning asosiy ko‘rsatkichlar tizimi keltirilgan.

²⁹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 3 avgustda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasining milliy statistika tizimini yanada takomillashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4796-sonli Qarori //www.lex.uz

³⁰ N.M.Soatov. Statistika. Darslik. – T.: Abu Ali ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti, 2003, 99-bet.



2.1-rasm. KBXTning asosiy ko‘rsatkichlar tizimi³¹

2.1-rasmda qayd etilgan faoliyat turlari KBXT faoliyatini tavsiflovchi integral, umumlashtiruvchi, xususiy ko‘rsatkichlarni aniqlash imkonini beradi.

Integral ko‘rsatkichlar – KBXT faoliyatining samaradorligini yaxlit, shuningdek, har bir tarmoq bo‘yicha samaradorlik darajasini ifodalab, tegishli qaror qabul qilish imkonini beradi. Umumlashtiruvchi ko‘rsatkich – samaradorlikni xo‘jalik bo‘yicha mavjud resurslar va yalpi sarflangan xarajatlar nuqtai nazardan ifodalaydi. Xususiy ko‘rsatkichlar esa umumiy samaradorlik darajasiga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash imkonini beradi. Yuqoridagi guruhlashdan kelib chiqib, xususiy ko‘rsatkichlardan tashkil topgan integral ko‘rsatkichlari tuziladi (2.2-rasm).

³¹ Muallif inlanmasi



2.2-rasm. KBXTda xususiy ko'rsatkichlardan tashkil topgan integral ko'rsatkichlar³²

Ushbu ko'rsatkichlar miqdoriy xususiyatga ega bo'lib, pul birligida ifodalanadi. Ularning statistik ma'lumotlar bazasi buxgalteriya hisobi ma'lumotlaridan tashkil topadi.

³² Muallif ishlanmasi

Hududlarda KBXT faoliyati samaradorligini tavsiflovchi statistik ko'rsatkichlar tizimiga qo'yiladigan talablar³³

№	Ko'rsatkichlar tizimi	Izoh
1.	Tarmoqlar samaradorligini tavsiflovchi kursatkichlar	Alohida tarmoqlardagi vutuq va kamchiliklarni aniqlashga, muhim va muhim bo'lmagan omillarni tanlab, tarmoq faoliyatini qay tarzda olib borish kerakligini aniqlab olishga
2.	Tarmoqlararo samaradorlik darajasini ifodalovchi kursatkichlar	Tarmoqlar munosabatlarini, ularning samaradorligini aniqlashga yordam beradi
3.	KBXT ob'ektini yuritishning davlat tomonidan varatilgan umumiy iktisodiy mexanizmlarini tavsiflovchi kursatkichlar	Asosiy ishlab chikarish vositalaridan, bank kreditlaridan, imtivozli kreditlardan foydalanish, KBXTdagi mausulotni sotish, xizmatlardan foydalanish samaradorligini
4.	KBXTning ichki faoliyati mexanizmini tavsiflovchi kursatkichlar	KBXT korxonalaridan foydalanish, mausulot ishlab chikarish va sotish buyicha xarajatlarni, soliklar va kreditlarni kavtarish, kapital kuyilmalar summalarini aniqlash imkonini beradi
5.	Sotish, xarid qilish va e'lash buyicha shartnomaviy munosabatlarni tavsiflovchi kursatkichlar	Tav'rov va kavta ishlovchi tashkilotlarga tulovlar, moddiy-texnika resurslarini vetkazib beruvchi va xizmat kursatuvchilar bilan alokalar uchun tulovlar, bozor munosabatlari va servis korxonalari bilan alokalar uchun tulov va tushumlar summalarini aniqlash
6.	Eksport va import operatsiyalarini tavsiflovchi kursatkichlar	KBXT sohasida ishlab chikargan mausulotni tashki dunvoga sotish yoki tashki dunvodan xom-ashyo va detallar, ishlanmalar sotib olish uajimini uamda umumiy faoliyatida eksport va import ulushini aniqlash

KBXTning ko'rsatkichlar tizimini takomillashtirish yoki ko'rsatkichlar tarkibini o'zgartirish kichik korxonalarni tashkil etishga asos bo'lgan omillarni qayta ko'rib chiqishni taqozo etadi. Ko'rsatkichlardan unumli foydalanish kichik korxonalar faoliyatini samarali yuritishni ta'minlab natijani ijobiy bo'lishiga olib keladi.

³³ Muallifning ilmiy izlanishlari asosida tuzildi

KBXT faoliyatining samaradorligini tavsiflovchi ko'rsatkichlar tizimiga 6-jadvalda qayd etilgan talablar qo'yiladi.

Agar hududlardagi KBXTning ko'p yillik faoliyatini o'rganmoqchi bo'lsak, 6-rasmdagi integral ko'rsatkichlarga yillar davomida boshqariladigan va boshqarilmaydigan hamda bozor muhiti bilan bog'liq turli noaniq omillar ta'sir etishini o'rganish lozim. Natijada ko'rsatkichlar miqdorlarining rejadagi miqdorlaridan og'ishi bor-yo'qligini ko'rishimiz mumkin. Shuning uchun integral ko'rsatkichlar stoxastik xususiyatga ega bo'lgan ko'rsatkichlar hisoblanadi. Bunday ko'rsatkichlar bilan ifodalanuvchi xodisa va jarayonlar ehtimollar nazariyasi, statistika va matematik dasturlash usullariga asoslangan ekonometrik modellashtirish orqali o'rganiladi.

KBXT faoliyati statistik ko'rsatkichlar tizimi orqali ifodalanib, ular kichik korxonalarining rivojlanish tendensiyalarini aniqlash imkoniyatini beradi. Bu esa, korxonalar rahbari uchun boshqaruv qarorlarini qabul qilish hamda KBXT tarmoqlarini o'zaro qiyoslash va iqtisodiy samaradorlikka ta'sir etuvchi bevosita va bilvosita omillarni aniqlash imkonini yaratadi.

KBXTning asosiy ko'rsatkichlaridan biri bu xizmat ko'rsatish sohasi hisoblanadi. Shunday ekan KBXTda ishlab chiqarilgan (ko'rsatilgan) xizmatlarni, shunidek qishloq joylarida ko'rsatilgan xizmatlarni ham statistik hisobga olish maqsadida hududlarda tanlama kuzatish olib boriladi.

Joriy yilda tugatilgan kichik tadbirkorlik sub'ektlari ko'rsatgan xizmatlarining har bir chorak (kvartal) bo'yicha hajmini topishda quyidagi formuladan foydalaniladi:³⁴

$$V_{ln} = \frac{V_{lpr}}{V_{mpr}} \cdot V_{mn}$$

bu yerda:

V_{ln} - joriy yilning n-choragi uchun kichik tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmi;

³⁴ Muallif tomonidan taklif qilinayotgan variant

V_{lpr} - joriy yilda tugatilgan kichik tadbirkorlik sub'ektlari ko'rsatgan xizmatlarining o'tgan yildagi hajmi;

V_{mpr} - kichik tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan ko'rsatgan xizmatlarining o'tgan yildagi hajmi;

V_{mn} - n-chorak (kvartal) uchun kichik tadbirkorlik sub'ektlarining tanlama ma'lumotlari. Kichik tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan ko'rsatgan xizmatlarning o'rtacha oylik hajmi esa quyidagi formula orqali hisoblanadi:

$$V_{mn} = \frac{V_{ln}}{3}$$

KBXT sohasida ishlab chiqarilgan (ko'rsatilgan) xizmatlarning, shunindек qishloq joylarida ko'rsatilgan xizmatlarni ham statistik hisobga olish uchun tanlama kuzatish orqali amalga oshirish mumkin. Buni quyidagicha hisoblash lozim.

Joriy yilda kichik tadbirkorlik sub'ektlarining innovatsion ko'rsatgan xizmatlarini choraklik (kvartal) hajmi:

$$V_{xkj} = \frac{V_{ixk}}{V_{xkj}} \cdot V_{mn}$$

35

bu yerda:


V_{ixk} - joriy yilning n-choragi uchun kichik tadbirkorlik sub'ektlarining innovatsion ko'rsatgan xizmatlari hajmi;

V_{ixk} - joriy yilda kichik tadbirkorlik sub'ektlarining innovatsion ko'rsatgan xizmatlari hajmi;

V_{xkj} - kichik tadbirkorlik sub'ektlarining ko'rsatgan xizmatlari hajmi;

V_{mn} - n-chorak (kvartal) uchun kichik tadbirkorlik sub'ektlari tanlama ma'lumotlari.

³⁵ Muallif tomonidan taklif qilinayotgan variant



2.3-rasm. KBXTning innovatsion faoliyatini ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi³⁶

So'nggi yillarda O'zbekistonda innovatsion faoliyatni rivojlantirish borasida qator chora-tadbirlarni amalga oshirish belgilangan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 sentabrdagi "2019 – 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5544-sonli Farmonida qayd etilganidek, "... o'tkazilgan tahlil ishlab chiqarishni modernizatsiya, diversifikatsiya qilish, uning hajmini oshirish

³⁶ Muallif ishlanmasi

hamda ichki va tashqi bozorlarda raqobatbardosh mahsulotlar turlarini kengaytirish borasidagi ishlar lozim darajada olib borilmayapti, bu borada ko‘plab ko‘rsatkichlarning mavjud emasligi va ishlar samarali muvofiqlashtirilmagani sababli mamlakatimiz so‘nggi yillarda nufuzli va obro‘li xalqaro tuzilmalar tomonidan aniqlanadigan Global innovatsion indeks reytingida ishtirok etmayotir”.³⁷Shulardan kelib chiqqan holda mamlakatimizning xalqaro maydondagi raqobatbardoshligi darajasini va innovatsion jihatdan taraqqiy etganini belgilovchi omil sifatida inson kapitalini rivojlantirish maqsadida “2019 – 2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish” strategiyasi ishlab chiqildi.


Strategiyada “O‘zbekiston Respublikasining 2030 yilga borib, Global innovatsion indeks reytingi bo‘yicha jahonning 50 ilg‘or mamlakati qatoriga kirishiga erishish”³⁸belgilandi. Bu maqsadga erishish uchun eng avvalo, hududlarda joylashgan korxonalarining, shu jumladan, KBXT sub’ektlarining innovatsion faoliyatini rivojlantirish muhim hisoblanadi.

Keyingi yillarda KBXT sub’ektlari tomonidan innovatsiyalarga qilingan xarajatlar oshib borgani holda, 2021 yilda innovatsiyalar asosan ularning o‘z mablag‘lari hisobidan, ya’ni 73,8 foizi moliyalashtirilgan, 8,2 foizi xorijiy investitsiyalar, 14,3 foizi tijorat banklari kreditlari va 3,6 foizi boshqa mablag‘lar hisobiga amalga oshirilgan. Bu tegishli ko‘rsatkichlar 2013 yilda mos ravishda 90,0; 4,5; 5,4 va 0,1 foizga teng bo‘lib, o‘z mablag‘larining hissasi 16,2 foiz punktga pasayganidan dalolat beradi. Demak, kichik biznes sohasida innovatsiyalarni moliyalashtirish uchun o‘z mablag‘larining taqchilligi kuzatilmoqda (2.2- rasm).

- | | |
|-----------------------------------|----------------------------|
| * Korxonaning o‘z mablag‘lari | * Chet el investitsiyalari |
| * Tijorat banklarining kreditlari | * Boshqa mablag‘lar |

³⁷ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 sentabrdagi “2019–2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5544-sonli farmoni. //Lex.uz.

³⁸ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 sentabrdagi “2019–2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5544-sonli farmoni. //Lex.uz.



2.2-rasm. KBXTni moliyalashtirish manbalari bo'yicha texnologik, marketing, tashkiliy innovatsiyalarga qilingan xarajatlarning foizlari (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz, jamiga nisbatan foizda)

2.4-jadval

O'zbekiston Respublikasida KBXT innovatsion faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)³⁹

T/r	Kursatkichlar	Yillar								
		2013	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021
1	Kichik korxonalar va mikro firmalar tomonidan joriy kilingan innovatsiyalar soni	624	808	884	818	1223	1292	4038	3535	2974
2	Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan ishlab chikarilgan innovatsion tovarlar, ishlar, xizmatlar	409,8	1160,7	1681,8	1671,9	1224,3	7196,3	8455,4	14129,1	10667
	b) xarajatlarning miqdori, mlrd.sum	181,2	351,4	354,8	211,4	715,3	1156,8	1939,9	1041,6	1189,4
	v) foyda summasi, mlrd.sum	228,6	809,3	1327	1460,5	509,0	6039,5	6515,5	13087,5	9477,6
	g) rentabellik darajasi, %	126,2	230,3	374,0	690,9	71,2	522,1	335,9	1256,5	796,8

³⁹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligining 2013-2020 yillar ma'lumotlari asosida hisoblangan.

Mamlakatimizda kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan joriy qilingan innovatsiyalar soni 2013 yilda 624 tani tashkil etgan bo'lsa, 2021 yilga kelib, 2974 taga yetgan. Bu esa, innovatsiyalarni faollashtirish borasida amalga oshirilayotgan ijobiy ishlar natijasi hisoblanadi. Natijada shu yillar mobaynida tegishli ravishda mahsulot ishlab chiqarish hajmi amaldagi baholarda 409,8 va 10667 mlrd. so'mga, xarajatlar miqdori esa 181,2 va 1189,4 mlrd. so'mga teng bo'lib, foydalilik darajasi 126,2 va 796,8 foizni tashkil etgan, ya'ni samaradorlik ko'rsatkichi qariyb 6,32 martaga oshgan (7-jadval).

2.5-jadval

KBXT korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan innovatsion tovarlar, ishlar va xizmatlarning hududiy tarkibi (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz), %⁴⁰

Xududlar	2013	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021
O'zбекистон Respublikasi	2,1	3,0	1,8	3,0	2,9	1,6	1,6	1,2	1,0
Andijon	4,7	0,9	0,5	0,9	3,8	2,7	2,7	1,0	1,1
Buxoro	4,9	6,4	1,4	2,2	2,6	2,7	2,7	2,9	2,2
Jizzax	2,3	1,7	4,7	3,3	7,5	6,6	6,6	3,2	1,5
Qashqadaryo	1,2	0,9	0,8	0,5	0,3	3,9	3,9	2,9	8,4
Navoiy	8,7	3,3	1,7	1,7	5,8	4,4	4,4	3,3	5,9
Namangan	3,9	7,5	7,8	5,6	5,1	8,6	8,6	2,7	3,3
Samarkand	2,1	1,8	11,3	11,7	3,8	6,4	6,4	7,5	5,7
Surxondaryo	1,2	1,6	1,8	2,3	3,0	1,2	1,2	2,1	1,7
Sirdaryo	0,7	4,3	3,5	3,9	4,7	5,4	5,4	4,7	5,5
Toshkent	1,3	11,6	11,6	9,8	13,8	17,8	17,8	15,9	9,2
Fartona	6,3	3,7	4,9	5,8	15,1	7,0	7,0	10,4	4,6
Xorazm	3,0	2,5	4,7	3,3	5,8	7,2	7,2	0,5	1,6
Jami:	42,2	49,2	46,5	54,0	74,3	75,6	75,6	58,4	51,7

Mamlakatimiz hududlarining innovatsiya jarayonlarida ishtirok etish darajasidagi tafovutlarni aniqlashda muhim ko'rsatkichlardan biri ishlab chiqarilgan innovatsion mahsulotlarning hududiy tarkibi hisoblanadi (8-jadval).

Tahlillar shundan dalolat beradiki, KBXT sohasida ishlab chiqarilgan innovatsion tovarlar, ishlar va xizmatlarning hududiy taqsimotida farqlanishlar

⁴⁰ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligining 2013-2021 yillar ma'lumotlari

mavjud. Chunonchi, jami innovatsion mahsulotlarning 2021 yilda 9,2 foizi Toshkent viloyati hissasiga to'g'ri keladi. Ayni vaqtda Qoraqalpog'iston Respublikasi va Andijon viloyatining bu boradagi ulushi past darajada bo'lgan.

Hududlarda KBXT sohasida innovatsiya faoliyati rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan omillarga quyidagilarni ko'rsatishimiz mumkin:

- kichik biznes sub'ektlarida o'z pul mablag'larining yetishmasligi;
- davlat tomonidan sohaning innovatsiya faoliyatini moliyaviy qo'llab-quvvatlash yetarli emasligi;
- innovatsiyalar borasida zaruriy va kerakli ma'lumotlar yetarli darajada emasligi;
- ilmiy-tadqiqot va oliy ta'lim muassasalari o'rtasida o'zaro integratsiyalarning zaifligi;
- hududlarda KBXT sohasida yuqori malakali kadrlar taqchilligi tufayli innovatsion salohiyatning pastligi.

Ta'kidlash joizki, bu omillar barcha hududlardagi xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga xos bo'lib, yangiliklarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish yuqori xarajat talab etishi bilan izohlanadi. Shunga ko'ra, bozor sharoitida muvaffaqiyatli ish yuritib, innovatsion faoliyat bilan shug'ullanayotgan korxonalar, bu faoliyat bilan shug'ullanmaydigan korxonalariga nisbatan yuqori iqtisodiy ko'rsatkichlarga erishmoqdalar.

Mamlakatimiz mintaqalarida innovatsiya faoliyatining rivojlanishini ta'minlashda fikrimizcha, quyidagi dastaklardan foydalanish maqsadga muvofiq:

- ichki va tashqi bozorda innovatsion mahsulotlarga bo'lgan talabni rag'batlantirish;
- fan-texnika va ilmlar generatsiyasi sektorining natijadorligini oshirish.
- innovatsion faoliyatni amalga oshirish maqsadida hududlarda kadrlar salohiyatini oshirish.

KBXT sohasi bugungi kunda mamlakatimizda eng yirik mehnat bozori, mulkdorlarning o'rta sinfini shakllantirishning asosiy omili, millionlab odamlar uchun daromad va farovonlik manbai bo'lib, ular o'z biznesini rejalashtirish va

kuchaytirish asosida iqtisodiyotimiz barqarorligini ta'minlashdan eng ko'p manfaatdor bo'ladilar.

2.2. Hududlarni tadbirkorlikning statistik ko'rsatkichlari orqali hududlar reytingini baholash holati

Mamlakatimiz hududlarida KBXTni innovatsion rivojlanishi va mazkur sektorni davlat tomonidan tartibga solinishi yanada faollashib bormoqda. Mamlakat hududlaridagi ishbilarmonlik muhitining tobora kengayishi KBXT sub'ektlarini innovatsion rivojlanish orqali faoliyatini ta'minlashga olib kelmoqda. Natijada yalpi hududiy mahsulotning (YaHM) oshishida barcha tarmoqlardagi kichik biznes sub'ektlarining hissasi ortib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasida keyingi yillarda iqtisodiyotning barqaror iqtisodiy o'sishini ta'minlash va modernizatsiyalash hamda hozirgi pandemiya sharoitida KBXT sub'ektlariga soliq yukini kamaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik manfaatlarini ishonchli himoya qilish va ularga qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Tadbirkorlarga yanada qulaylik yaratish maqsadida 105 ta litsenziya va ruxsatnoma turlari bekor qilinadi, 115 tasi bo'yicha esa tartib-qoidalar soddalashtiriladi. Pandemiya sharoitida aylanma mablag' tanqisligiga duch kelgan tadbirkorlarimiz "oyoqqa turib olishlari" uchun ularga ko'mak berishni davom ettiramiz".⁴¹

Shunday ekan, hozirgi rivojlanayotgan davrda va chuqur islohotlar fonida respublikamiz hududlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini atroflicha tahlil qilish muhim va oqilona iqtisodiy qarorlar qabul qilishda har qachongidan ham dolzarblik kasb etmoqda.

Bu borada, mamlakatimiz hududlarini barqaror va jadal rivojlantirish uchun ularning kompleks va mutanosib ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash, tabiiy xom-ashyo resurslaridan foydalanish samaradorligini, iqtisodiy va investitsiyaviy salohiyatini, shuningdek, hududlarning boshqa qiyosiy ustunliklarini baholashning

⁴¹ Sh.M.Mirziyoyev. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 dekabrda Oliy Majlisga va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. <https://president.uz/uz/lists/view/4056>

yagona tizimini joriy etish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 1 mayda PQ-4702-son “Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni reyting baholash tizimini joriy etish to‘g‘risida”⁴²gi Qaroriga muvofiq statistik ko‘rsatkichlar va so‘rovnomalar natijalari asosida hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini reyting baholash tizimi joriy etildi. Bu esa, o‘z navbatida respublika hududlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko‘rsatkichlarini tahlil qilish borasidagi muammolarning amaliy yechimi bo‘lib xizmat qilmoqda.

D.A.Karimov “Respublika hududlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini tahlil qilishda reyting baholash tizimining mohiyati va afzalliklari⁴³”, O.A.Aripov “Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish hamda ishbilarmonlik muhitini yaratish”⁴⁴ga bog‘liqliklariga alohida to‘xtalib o‘tishgan.

Hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini reyting baholash tizimi endilikda respublika miqyosida yoki alohida olingan hududlar kesimida iqtisodiy – ijtimoiy sohalarga doir qarorlar qabul qilishda, ayni hududlardagi tizimli muammolarni aniqlashda, hududlarning real iqtisodiy salohiyatini baholashda, aholi turmush darajasi va daromadlarini tahlil qilishda, shuningdek, eng muhimi joylardagi mahalliy ijro organlari rahbarlarining faoliyatlarini doimiy kuzatib borish asosida mas’uliyatini oshirish va ularning faoliyati samaradorligini xolisona baholashda o‘ziga xos metodologiya hisoblanadi.

Mamlakatimiz hududlarining ijtimoiy – iqtisodiy rivojlanishi bo‘yicha bir-biridan sifat jihatdan tubdan farq qiladi. Hududlarning ijtimoiy - iqtisodiy rivojlanishiga bir qator omillar ta’sir ko‘rsatadi. Har bir hudud tabiiy - iqlim sharoitlari, tabiiy boyliklari, shakllangan infratuzilmasi va boshqa omillari bo‘yicha o‘z o‘rniga ega.

Hududlarning KBXT ko‘rsatkichlari bo‘yicha reytingini baholash bosqich (qadam)lari quyidagicha amalga oshirilishi lozim:

1-bosqich: KBXTning asosiy ko‘rsatkichlari aniqlab olinadi:

⁴² Sh.M.Mirziyoev. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 1 mayda “Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni reyting baholash tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PQ-4702-son Qarori

⁴³ D.A.Karimov “Respublika hududlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini tahlil qilishda reyting baholash tizimining mohiyati va afzalliklari” // “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. 2020 yil sentabr-oktabr № 5.

⁴⁴ O.A.Aripov “Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish hamda ishbilarmonlik muhitini yaratish”// “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. 2019 yil mart-aprel № 2.

2-bosqich: Har bir ko‘rsatkich bo‘yicha uning eng katta (maksimal) qiymati tanlab olinadi:

$$\max(K_{ij}) \{K_{ij}\}, j = 1, n$$

Bu yerda,

i- qaralayotgan ko‘rsatkich;

j- hudud;

n- hududlar soni.

3-bosqich: Har bir i ko‘rsatkich bo‘yicha viloyatlarning reytingi aniqlanadi.

Hudularning reytingini aniqlashda quyidagi formuladan foydalaniladi:

$$R_{ij} = 10 * K_{ij} \max(K_{ij})$$

bu yerda,

R_{ij} — j hududning i ko‘rsatkich bo‘yicha reyting bali;

K_{ij} — i ko‘rsatkichning j hududdagi qiymati;

$\max(K_{ij})$ — i ko‘rsatkichning maksimal qiymati.

4-bosqich: Har bir hudud bo‘yicha aniqlangan ko‘rsatkichlar reytingi yig‘indisi ko‘rsatkichlar soni (n)ga bo‘linadi:

$$R_j = \sum_{i=1}^n R_{ij} / n$$

Bu yerda,

R_j — j hududning umumlashtiruvchi reyting bali.

5-bosqich: Reyting bali bo‘yicha hududlar 3 ta guruhga ajratiladi (yuqori, o‘rta va past daraja). Bunda guruhlash oralig‘ini aniqlash uchun quyidagi formuladan foydalaniladi:

$$h = R_{\max} - R_{\min} / 3$$

Bu yerda, R_{\max} va R_{\min} hududlarning eng yuqori va eng past ballari (Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlarni umumlashtiruvchi reyting bali). KBXTning reytingini aniqlashdagi asosiy ko‘rsatkichlar quyidagilardan iborat:

1. KBXT korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan innovatsion tovarlar, ishlar va xizmatlar (fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz, mlrd. so‘m).

2. KBXT korxonalarini tomonidan texnologik, marketing tashkiliy innovatsiyalarga qilingan xarajatlar (fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz, mlrd. so‘m).

3. KBXT korxonolari tomonidan joriy qilingan innovatsiyalar (fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz, birlik).
4. KBXTning YaIM va YaHM dagi ulushi (mlrd so‘m).
5. KBXT sub’ektlari tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari (ishlar, xizmatlar) hajmi (mlrd so‘m).
6. KBXT sub’ektlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlar hajmi (mlrd so‘m).
7. KBXT sub’ektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi (mlrd so‘m).
8. KBXT sub’ektlari tomonidan ishlab chiqarilgan (ko‘rsatilgan) bozor xizmatlari hajmi (mlrd so‘m).
9. KBXT sub’ektlarining tovarlar va xizmatlar eksporti (mln. doll).
10. KBXT sub’ektlarining tovarlar va xizmatlar importi (mln. doll).
11. KBXT sub’ektlari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi (mlrd so‘m).

2.6-jadval

Respublika hududlarida KBXTning 2010-2021 yillardagi asosiy ko‘rsatkichlari bo‘yicha aniqlangan reytingi⁴⁵

Xududlar	i	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	O`rtacha
O‘rta O‘zbekiston Respublikasi	1,7	0,9	1,4	3,7	3,1	6,0	4,2	4,5	3,8	1,4	1,2	2,4
Andijon	0,9	0,3	0,9	5,0	5,5	5,0	4,5	6,2	7,0	4,2	3,1	2,8
Buxoro	2,4	1,4	2,9	7,0	6,1	8,3	6,6	8,2	9,7	3,3	3,2	4,6
Jizzax	4,3	1,7	2,3	6,2	4,3	6,5	8,6	5,4	9,3	3,0	3,2	4,4
Qashqadaryo	0,5	0,2	0,4	4,7	3,4	5,2	3,8	5,2	6,0	1,6	1,4	1,8
Navoiy	6,7	4,2	7,8	10,0	9,8	10,0	9,0	8,6	9,8	4,4	5,2	7,4
Namangan	3,3	1,8	1,8	4,4	4,1	4,8	5,6	5,3	5,6	3,2	2,9	3,6
Samarqand	2,1	0,9	0,7	5,4	4,7	5,2	5,8	6,4	7,3	3,5	3,5	3,4
Surxondaryo	1,2	1,5	3,4	4,4	1,8	5,2	5,0	5,6	6,6	2,4	2,0	3,1
Sirdaryo	7,1	6,3	7,9	6,5	8,0	6,9	7,8	5,1	9,0	8,1	7,2	7,2
Toshkent	5,6	2,2	3,3	6,8	9,3	5,2	7,5	10,0	7,3	9,4	9,7	6,4
Fargona	3,1	2,0	2,8	4,1	4,7	4,6	4,2	6,1	4,9	3,2	2,8	3,7
Xorazm	2,6	0,5	1,0	5,2	3,2	5,8	5,2	5,6	7,2	2,1	1,8	2,8
O`rtacha ball	2,5	1,2	2,0	5,5	4,7	5,9	5,8	6,2	7,0	3,3	3,0	3,8

⁴⁵ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligining 2013-2021 yillar ma’lumotlari asosida muallif hisobkitoblari.

2.6-jadvalni 1-11 ilovalardan foydalanib tuzamiz. Mamlakatimiz hududlarini reyting balini aniqlashda ularni 3 ta guruhga ajratamiz (yuqori, oʻrta va past daraja). Bu yerda 2010- 2021 yillarda 11 ta koʻrsatkich boʻyicha 13 ta hududni guruhlariga ajratamiz. 13 ta hududni 11 ta koʻrsatkichlar boʻyicha reytingini tahlil qiladigan boʻlsak, eng yuqorisi Navoiy viloyati (7,4) va eng past natija Qashqadaryo viloyati (1,8) ekanligi aniqlandi. Bunda guruhlash oraligʻini aniqlash uchun yuqorida qayd etilgan formuladan foydalaniladi:

$$h = R_{max} - R_{min} / 3 = 7,4 - 1,8 / 3 = 1,87 \text{ ball}$$

1-guruh: 5,54 balidan 7,4 balgacha;

2-guruh: 3,67 balidan 5,54 balgacha;

3-guruh: 1,8 balidan 3,67 balgacha.

2.7-jadval

Oʻzbekiston Respublikasi hududlarida KBXTning 2010-2021 yillardagi asosiy koʻrsatkichlari reytingi boʻyicha guruhlanishi⁴⁶

Guruhlar	Viloyatlar	Oʻrtacha ball	Baho
1-guruh; 5,54-7,4	Navoiy	7,4	Oʻrtachadan yuqori
	Sirdaryo	7,2	
	Toshkent	6,4	
2-guruh: 3,67-5,54	Buxoro	4,6	Oʻrtacha
	Jizzax	4,4	
	Fargona	3,7	
3-guruh: 1,8-3,67	Namangan	3,6	Oʻrtachadan past
	Samarqand	3,4	
	Surxondaryo	3,1	
	Andijon	2,8	
	Xorazm	2,8	
	Qoraqalpogʻiston Respublikasi	2,4	
	Qashqadaryo	1,8	

Barcha hududlarda aholi jon boshiga keltirilgan asosiy koʻrsatkichlarni hisoblash va reytingini aniqlashda integral koʻrsatkichlardan foydalaniladi. Bu koʻrsatkichlar boʻyicha oʻrtachadan yuqori darajada rivojlangan hududlar guruhiga (indeks 5,54 dan 7,4 gacha) Navoiy (7,4), Sirdaryo (7,2), Toshkent (6,4) kiradi.

⁴⁶ Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi maʼlumotlari asosida muallif hisob-kitoblari

O'rtacha rivojlanish darajasidagi guruhiga (indeks 3,67 dan 5,54 gacha) Buxoro (4,6), Jizzax (4,4) va Farg'ona (3,7) hududlari kiradi va o'rtachadan past darajadagi rivojlanish guruhiga, ya'ni indeksi 1,45 dan 2,41 gacha hududlarga Namangan (3,6), Samarqand (3,4), Surxondaryo (3,1), Andijon (2,8), Xorazm (2,8), Qoraqalpog'iston Respublikasi (2,4), Qashqadaryo (1,8) kirgan.

Hududlar reytingini ko'rsatkichlar bo'yicha tahlil qilish maqsadida, yuqoridagi 11 ta ko'rsatkichni 3 asosiy guruhga ajratib olamiz. Ya'ni, 1-guruhga innovatsion ko'rsatkichlari: (1) KBXT korxonalaridan ishlab chiqarilgan innovatsion tovarlar, ishlar va xizmatlar; (2) KBXT korxonalaridan texnologik, marketing tashkiliy innovatsiyalarga qilingan xarajatlar; (3) KBXT korxonalaridan joriy qilingan innovatsiyalar. 2-guruh KBXTning asosiy ko'rsatkichlari deb nomlanib, ularga quyidagilarni kiritamiz: (4) KBXTning YaIM va YaHM dagi ulushi; (5) KBXT sub'ektlari tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari (ishlar, xizmatlar) hajmi; (6) KBXT tomonidan bajarilgan qurilish ishlar hajmi; (7) KBXT sub'ektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi; (8) KBXT sub'ektlari tomonidan ishlab chiqarilgan (ko'rsatilgan) bozor xizmatlari hajmi; (9) KBXT sub'ektlari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi. 3-guruh KBXTning tashqi iqtisodiy faoliyati: (10) KBXT sub'ektlarining tovarlar va xizmatlar eksporti; (11) KBXT sub'ektlarining tovarlar va xizmatlar importi.

KBXTning innovatsion ko'rsatkichlari bo'yicha guruhlashni 1-3-ilovalardan foydalanib 2.8-jadvalni tuzamiz.

Mamlakatimiz hududlarida KBXTning innovatsion ko'rsatkichlari reytingini aniqlashda ishlab chiqarilgan innovatsion tovarlar, ishlar va xizmatlar hajmi; texnologik, marketing tashkiliy innovatsiyalarga qilingan xarajatlar hajmi; joriy qilingan innovatsiyalar soni ko'rsatkichlari orqali tahlillar amalga oshirildi. Hududlarda joriy qilingan innovatsiyalar soni bo'yicha, o'rtachadan yuqori hududlarga Sirdaryo (7,9), Navoiy (7,8) viloyatlari kiradi. O'rtacha hududlarga esa Surxondaryo (3,4), Toshkent (3,3), Buxoro (2,9) viloyatlari kirgan. O'rtachadan past hududlarga Farg'ona (2,8), Jizzax (2,3), Namangan (1,8), Qoraqalpog'iston

Respublikasi (1,4), Xorazm (1,0), Andijon (0,9), Samarqand (0,7), Qashqadaryo (0,4) kirgan.

KBXT tomonidan texnologik, marketing tashkiliy innovatsiyalarga qilingan xarajatlarning hajmi bo'yicha, o'rtachadan yuqori hududlarga Sirdaryo (6,3), viloyati kiradi. O'rtacha hududlarga esa Navoiy (4,2), viloyati kirgan. O'rtachadan past hududlarga qolgan 11 ta hudud kirganligini ko'rish mumkin.

2.8-jadval

O'zbekiston Respublikasi hududlarida KBXTning 2010-2021 yillardagi innovatsion ko'rsatkichlari reytingi bo'yicha guruhlanishi⁴⁷

Guruhlar	Viloyatlar	O'rtacha ball	Baxo
1-guruh: 4,9-7,1	Sirdaryo	7,1	O'rtachadan yuqori
	Navoiy	6,7	
	Toshkent	5,6	
2-guruh: 2,7-4,9	Jizzax	4,3	O'rtacha
	Namangan	3,3	
	Fargona	3,1	
3-guruh: 0,5-2,7	Xorazm	2,6	O'rtachadan past
	Buxoro	2,4	
	Samarkand	2,1	
	KK'iston Res.	1,7	
	Surxondaryo	1,2	
	Andijon	0,9	
	Kashkadaryo	0,5	
KBXT tomonidan texnologik, marketing tashkiliy innovatsiyalarga qilingan			
1-guruh: 4,3-6,3	Sirdaryo	6,3	O'rtachadan yuqori
2-guruh: 2,2-4,3	Navoiy	4,2	O'rtacha
3-guruh: 0,3-2,2	Toshkent	2,2	O'rtachadan past
	Fargona	2,0	
	Namangan	1,8	
	Jizzax	1,7	
	Surxondaryo	1,5	
	Buxoro	1,4	
	Qoraqalpog'iston R	0,9	
	Samarqand	0,9	
	Xorazm	0,5	
	Andijon	0,3	
	Qashqadaryo	0,2	

⁴⁷ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari

KBXT tomonidan ishlab chiqarilgan innovatsion tovarlar, ishlar va xizmatlar hajmi bo'yicha, o'rtachadan yuqori hududlarga Sirdaryo (7,1), Navoiy (6,7), Toshkent (5,6) viloyatlari kiradi. O'rtacha hududlarga esa Jizzax (4,3), Namangan (3,3), Farg'ona (3,1) viloyatlari kirgan. O'rtachadan past hududlarga esa Xorazm (2,4), Buxoro (2,4), Samarqand (2,1), Qoraqalpog'iston Respublikasi (1,2), Surxondaryo (1,7), Andijon (0,9), Qashqadaryo (0,5) kirgan (11-jadval).

Yuqoridagi tahlillardan shunday xulosaga kelish mumkinki, Jizzax, Namangan, Farg'ona viloyatlarida innovatsiyalarga qilingan xarajat bilan joriy qilingan innovatsiyalar soni bo'yicha o'rtachadan pastda turibdi. Lekin, innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi bo'yicha o'rtacha ekanligini ko'rishimiz mumkin. Shunday ekan ushbu hududlarda birinchidan kam xarajat qilib va innovatsiyalar sonini kam joriy qilib bo'lsa ham, ishlab chiqarilayotgan innovatsion mahsulotlar hajmi ko'pligidan dalolat beradi.

Mamlakatimiz hududlarida KBXTning 2010-2021 yillardagi asosiy ko'rsatkichlari reytingini aniqlash maqsadida qo'yidagi ko'rsatkichlar tanlab olindi: KBXTning YaHM dagi ulushi; KBXT sub'ektlari tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari (ishlar, xizmatlar) hajmi; KBXT sub'ektlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlar hajmi; KBXT sub'ektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi; KBXT sub'ektlari tomonidan ishlab chiqarilgan (ko'rsatilgan) bozor xizmatlar hajmi; KBXT sub'ektlari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi.

12-jadvalda guruhlangan ma'lumotlari tahlili KBXT sub'ektlari tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari (ishlar, xizmatlar) hajmi bo'yicha Navoiy (9,8), Toshkent (9,3), Sirdaryo (8,0), asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi Navoiy (9,0), Jizzax (8,6), Sirdaryo (7,8), Toshkent (7,5), qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi bo'yicha esa Navoiy (9,8), Buxoro (9,7), Jizzax (9,3), Sirdaryo (9,0) hududlari o'rtachadan yuqori ekanligini ko'rishimiz mumkin. Qolgan hududlar esa reyting ko'rsatkichi o'rtacha va o'rtachadan past natijaga ega.

O'zbekiston Respublikasi hududlarida KBXTning 2010-2021 yillardagi asosiy ko'rsatkichlari reytingi bo'yicha guruhlanishi⁴⁸

Guruhlar	Viloyatlar	O`rtacha ball	Baho
KBXTning YaX,M dagi ulushi			
1-guruh: 7,8-9,8	Navoiy	10,0	O`rtachadan yuqori
2-guruh: 5,8-7,8	Buxoro	7,0	
	Toshkent	6,8	O`rtacha
	Sirdaryo	6,5	
	Jizzax	6,2	
3-guruh: 3,7-5,8	Samarqand	5,4	
	Xorazm	5,2	
	Andijon	5,0	
	Qashqadaryo	4,7	
	Namangan	4,4	
	Surxondaryo	4,4	
	Farg'ona	4,1	
	Qoraqalpog'iston R	3,7	
KBXT sub'ektlari tomonidan ishlab chikarilgan sanoat maxsulotlari (ishlar, xizmatlar) hajmi			
1-guruh: 7,1-9,8	Navoiy	9,8	O`rtachadan yuqori
	Toshkent	9,3	
	Sirdaryo	8,0	
2-guruh: 4,5-7,1	Buxoro	6,1	O`rtacha
	Andijon	5,5	
	Samarqand	4,7	
	Fargona	4,7	
	Jizzax	4,3	
	Namangan	4,1	
	Qashqadaryo	3,4	
	Xorazm	3,4	
	Qoraqalpog'iston R	3,1	
	Surxondaryo	1,8	
KBXT sub'ektlari tomonidan bajarilan kurilish ishlar x,ajmi			
1-guruh: 8,2-10,0	Navoiy	10,0	O`rtachadan yuqori
	Buxoro	8,3	
2-guruh: 6,4-8,2	Sirdaryo	6,9	O`rtacha
	Jizzax	6,5	
3-guruu: 4,6-6,4	Qoraqalpog'iston R	6,0	O`rtachadan past
	Xorazm	5,8	
	Qashqadaryo	5,2	

⁴⁸ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari

	Samarqand	5,2	
	Surxondaryo	5,2	
	Toshkent	5,2	
	Andijon	5,0	
	Namangan	4,8	
	Fargona	4,6	
KBXT sub'ektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi			
1-guruh: 7,2-9,0	Navoiy	9,0	O`rtachadan yuqori
	Jizzax	8,6	
	Sirdaryo	7,8	
	Toshkent	7,5	
2-guruh: 5,5-7,2	Buxoro	6,6	O`rtacha
	Samarqand	5,8	
	Namangan	5,6	
3-guruh: 3,8-5,5	Xorazm	5,2	O`rtachadan past
	Surxondaryo	5,0	
	Andijon	4,5	
	Qoraqolpog'iston R	4,2	
	Fargona	4,2	
	Qashqadaryo	3,8	
KBXT sub'ektlari tomonidan ishlab chikarilgan (ko'rsatilgan) bozor xizmatlar hajmi			
1-guruh: 8,1-10,0	Toshkent	10,0	O`rtachadan yuqori
	Navoiy	8,6	
	Buxoro	8,2	

KBXTning YaHM dagi ulushi, bajarilgan qurilish ishlar hajmi, ishlab chiqarilgan (ko'rsatilgan) bozor xizmatlar hajmini tahlil qiladigan bo'lsak ushbu ko'rsatkichlar bo'yicha, YaHMdagi ulushi bo'yicha o'rtachadan yuqori hududga Navoiy (10,0), qurilish ishlari hajmi bo'yicha Navoiy (10,0), Buxoro (8,3), ishlab chiqarilgan (ko'rsatilgan) bozor xizmatlar hajmi Navoiy (9,8), Buxoro (9,7), Toshkent (9,3), Sirdaryo (9,0) hududlari egallagan, qolgan hududlar esa o'rtacha va o'rtachadan past reytinga ega bo'lganini ko'rishimiz mumkin (2.9-jadval).

O‘zbekiston Respublikasi hududlarida KBXTning 2010-2021 yillardagi tashqi iqtisodiy faoliyat ko‘rsatkichlari reytingi bo‘yicha guruhlanishi⁴⁹

Guruhlar	Viloyatlar	O‘rtacha bahol	Baho
KBXT sub’ektlarining tovarlar va xizmatlar eksporti			
1-guruh: 6,8-9,4	Toshkent	9,4	Urtachadan yuqori
	Sirdaryo	8,1	
2-guruh: 4,1-6,8	Navoiy	4,4	Urtacha
	Andijon	4,2	
3-guruh: 1,4-4,1	Samarqand	3,5	Urtachadan past
	Buxoro	3,3	
	Namangan	3,2	
	Fargona	3,2	
	Jizzax	3,0	
	Surxondaryo	2,4	
	Xorazm	2,1	
	Qashqadaryo	1,6	
	Qoraqalpog‘iston	1,4	
	KBXT sub’ektlarining tovarlar va xizmatlar importi		
1-guruh: 6,9-9,7	Toshkent	9,7	O‘rtachadan yuqori
2-guruh: 4,1-6,9	Sirdaryo	7,2	O‘rtacha
3-guruh: 1,2-4,1	Navoiy	5,2	O‘rtachadan past
	Samarqand	3,5	
	Buxoro	3,2	
	Jizzax	3,2	
	Andijon	3,1	
	Namangan	2,9	
	Fargona	2,8	
	Surxondaryo	2,0	
	Xorazm	1,8	
	Qashqadaryo	1,4	
	Qoraqalpog‘iston R	1,2	

Hududlardagi tashqi iqtisodiy faoliyatini tahlil qiladigan bo‘lsak, eksport bo‘yicha o‘rtachadan yuqori hududlarga Toshkent (9,4), Sirdaryo (8,1) tashkil qilgan bo‘lsa, o‘rtacha hududlarga Navoiy (4,4), Andijon (4,2) kiradi. O‘rtachadan past hududlarga esa qolgan 9 ta hududlar kiradi. KBXT sub’ektlarining tovarlar va xizmatlar importi bo‘yicha, o‘rtachadan yuqori hududga Toshkent (9,7) va o‘rtacha

⁴⁹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi ma’lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari

hududga Sirdaryo (7,2) qolgan 12 ta hududlar esa, o'rtachadan past hududlarga kiradi (13-jadval).

Yuqoridagi tahlillardan shunday xulosaga kelish mumkinki, tashqi iqtisodiy faoliyat barcha hududlarda bir xil amalga oshirilmagan. Asosan Toshkent va Sirdaryo viloyatlarida bu ko'rsatkich yuqori ekanligini ko'rishimiz mumkin. Bizning fikrimizcha qolgan hududlarda ham tashqi iqtisodiy faoliyat kuchaytirilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi deb hisoblaymiz.


2.3. Indekslar usuli yordamida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyati samaradorligini statistik tahlili

Mamlakatimizda mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab hududlarni rivojlantirish bo'yicha maqsadli siyosat olib borilmoqda. Buning natijasida maxsus kichik iqtisodiy zonalar, hududlarning markazlari shakllanmoqda, hududlarda yuqori malakali ishchi kuchi va istiqbolli infratuzilma loyihalari jalb qilinmoqda, hududlararo raqobat kuchaymoqda va hokazo. Bu o'zgarishlar hududlar bo'yicha alohida tadqiqot o'tkazishni va istiqbolni belgilaydigan rejalar tuzishni talab etadi.

Statistik indekslar tizimi orqali hududlar aholisining turmush darajasini tahlil qilini ko'rib chiqamiz. Masalan, respublikamizda taqqoslama baholarda (2021 yil bahosida) 2021 yilda 2010 yilga nisbatan YaIMning o'sish sur'ati 190,9 foizni, doimiy aholining o'sish sur'ati esa 122,2 foizni tashkil etib, aholi jon boshiga YaIMning o'sish sur'ati 156,2 foizga teng bo'lgan, ya'ni $(190,9 : 122,2) * 100 = 156,2$ %. KBXTning YaQQ respublikamizda taqqoslama baholarda (2021 yil bahosida) 2021 yilda 2010 yilga nisbatan YaQQning o'sish sur'ati 199,6 foizni, doimiy aholining o'sish sur'ati esa 122,2 foizni tashkil etib, aholi jon boshiga YaQQning o'sish sur'ati 156,2 foizga teng bo'lgan, ya'ni $(199,6 : 122,2) * 100 = 163,3$ %.

Ta'kidlash joizki, indeks bu murakkab iqtisodiy ko'rsatkich bo'lib, mutlaq, nisbiy va o'rtacha o'zgarishlarni bir yo'la ifodalaydi. Yuqorida keltirilgan indeks respublikada pirovard iste'mol uchun ishlab chiqariladigan barcha mahsulot va xizmatlar hajmi o'rtacha 7,4 foiz oshganini ifodalaydi. O'zo'zidan ravshanki, ayrim mahsulotlarni ishlab chiqarish turli darajada kamaygan yoki ko'paygan bo'lishi

mumkin. Shu bilan bir vaqtda real YaIM hajmi 2021 yilda 2020 yilga nisbatan (734 587,7 mlrd.so‘m : 683 845,6 mlrd.so‘m) * 100 = 107,4 foizni tashkil etgan yoki mutlaq qiymatda (734 587,7 – 683 845,6) = 50,7 trln. so‘mga oshgan (2021 yil bahosida). Real KBXTning YaQQ esa, mos ravishda (403 288,6 mlrd.so‘m : 380 902,0 mlrd. so‘m)*100=105,9 foizni tashkil etgan yoki (403 288,6 – 380 902,0)=22,4 trln.so‘mga oshgan (2021 yil bahosida).



2.3-rasm. O‘zbekistonda YaIMning va KBXTda yaratilgan YaQQning dinamikasi, trln.so‘m (2021 yil bahosida)⁵⁰

Hududlarda KBXT faoliyati samaradorligini aniqlashning asosiy ko‘rsatkichlaridan biri bu mehnat unumdorligi hisoblanadi. Mehnat unumdorligi dinamikasini aniqlashda akademik S.G.Strumilin tomonidan tavsiya etilgan o‘rtacha indeksdan foydalanishni lozim deb topdik. Tadqiqotimizda hududlarning KBXT sohasidagi mehnat unumdorligini aniqlash uchun quyidagi o‘rtacha arifmetik indeksni qo‘lladik:

$$I_w = \frac{\sum \left(\frac{Q_1}{T_1} : \frac{Q_0}{T_0} \right) \cdot T_1}{\sum T_1}$$

Bu yerda: Q0, Q1 – bazis va joriy davrda KBXT tomonidan ishlab chiqarilgan YaQQ hajmi (2021 yil bahosida);

T0, T1 – bazis va joriy davrlarda KBXT cohasida band bo‘lganlar soni.

2.11-jadval

⁵⁰ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi ma’lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari

O‘zbekiston Respublikasi hududlarida KBXT sohasida mehnat unumdorligi dinamikasi (oldingi yilga nisbatan, marta)⁵¹

Xududlar	2011	2012	2013	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	o‘rtacha
	y.	y.	y.	y.	y.	y.	y.	y.	y.	y.	y.	cha
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	0,0510	0,0509	0,0499	0,0499	0,0505	0,0499	0,0488	0,0488	0,0499	0,0505	0,0505	0,0501
Andijon	2,3515	2,3806	2,3500	2,3900	2,5303	2,2904	2,2808	2,1409	2,0504	2,1005	1,9809	2,2507
Buxoro	0,7089	0,6709	0,6706	0,6809	0,8208	0,6302	0,5807	0,6206	0,5902	0,6208	0,6207	0,6508
Jizzax	0,5645	0,5306	0,5503	0,5603	0,6701	0,6004	0,5909	0,6502	0,6108	0,7504	0,7702	0,6202
Kashkadaryo	2,6769	2,5209	2,6009	2,5803	2,7004	2,6604	2,6604	2,6501	2,3601	2,4007	2,1905	2,5404
Navoiy	0,3228	0,2700	0,3105	0,3005	0,3503	0,3001	0,3007	0,2602	0,2307	0,2506	0,2209	0,2805
Namangan	3,0957	2,8501	2,9801	2,1406	2,2202	2,2704	2,4201	2,3801	2,9304	3,0703	2,5201	2,4006
Samarkand	1,7155	1,6004	1,5904	1,5700	1,5205	1,5805	1,5401	1,5300	1,3407	1,4007	1,3606	1,5202
Surxondaryo	0,6408	0,6205	0,6307	0,6307	0,6605	0,6401	0,6303	0,6500	0,6306	0,7102	0,7000	0,6502
Sirdaryo	0,4546	0,4209	0,4007	0,4007	0,4100	0,3804	0,3607	0,3801	0,3309	0,3508	0,3307	0,3807
Toshkent	3,6395	3,0602	2,5302	2,6202	2,0807	2,7607	2,5504	2,6408	2,3002	2,7500	2,6003	2,5809
Fartona	1,3105	1,1503	1,2405	1,2505	1,4702	1,2701	1,2404	1,3203	1,1902	1,4302	1,3704	1,2904
Xorazm	0,5144	0,4801	0,4903	0,4803	0,5701	0,5101	0,4604	0,5503	0,4902	0,5402	0,5304	0,5104
O‘rtacha	0,8992	0,8405	0,8604	0,8604	0,9603	0,8605	0,8404	0,8600	0,7807	0,8708	0,8400	0,8401

Bu indeks, o‘rganilayotgan to‘plamdagi barcha birliklar bo‘yicha mehnat unumdorligining necha marta o‘sganligini (kamayganligini) yoki o‘shish (pasayish) necha foizni tashkil etganligini ko‘rsatadi. Mazkur indeksdan foydalangan holda KBXT sohasi bo‘yicha mehnat unumdorligi dinamikasi aniqlandi (14-jadval).

Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Buxoro, Jizzax, Navoiy, Surxondaryo, Sirdaryo, Xorazm hududlarida KBXT sohasida mahsulot hajmining o‘shish sur‘ati, xodimlar sonining o‘shish sur‘atidan pastligi natijasida mehnat unumdorligi darajasi pasaygan. Andijon, Qashqadaryo, Namangan, Samarqand, Toshkent, Farg‘ona hududlarida esa mehnat unumdorligi darajasining oshganligini ko‘rishimiz mumkin.

14-jadval ma’lumotlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi hududlarida 2011-2021 yillarda KBXTda mehnat unumdorligining eng yuqori ko‘rsatkichi 2015 yilda 0,963 martaga oshganligini (oldingi yilga nisbatan), eng past ko‘rsatkich 2019 yilda 0,787 martani tashkil etganligi aniqlandi. Mehnat unumdorligi eng yuqori bo‘lgan hudud Toshkent (3,589), eng past hudud esa Qoraqalpog‘iston Respublikasi

⁵¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi ma’lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari

(0,051)ni tashkil qilgan. Shu bo'yicha 3 ta guruhga ajratamiz (14-jadval 14-27 ilovalardan foydalanib tuzilgan).

1-guruh: 2,409 – 3,589

2-guruh: 1,230 – 2,409

3-guruh: 0,050 – 1,230

2010-2021 yillarda KBXTda mehnat unumdorligi darajasining o'rtachadan yuqori bo'lgan hududlarga Qashqadaryo (2,544), Namangan (3,406), Toshkent (3,589) kirgan bo'lsa, o'rtacha mehnat unumdorligiga erishgan hududlarga Farg'ona (1,294), Samarqand (1,522), Andijon (2,257) bo'lgan. O'rtachadan past hududlarga esa, Qoraqalpog'iston Respublikasi (0,051), Navoiy (0,285), Sirdaryo (0,387), Xorazm (0,513), Jizzax (0,622), Surxondaryo (0,652), Buxoro (0,658) viloyatlari kirgan. Yuqorida keltirilgan statistik tahlillardan ko'rinib turibdiki, o'rtachadan past bo'lgan 7 ta hududda mehnat unumdorligi past darajada ekanligini (15-jadval) ko'rishimiz mumkin.

2.12-jadval

O'zbekiston Respublikasi hududlarining KBXTning mehnat unumdorligi dinamikasi bo'yicha guruhlanishi⁵²

Guruhlar	Xududlar	KBXTda 2011-2021 yillarda o'rtacha mehnat unumdorligi dinamikasi	Baholanishi
2,409-3,589	Toshkent	3,589	O'rtachadan yuqori
	Namangan	3,406	
	Qashqadaryo	2,544	
1,230-2,409	Andijon	2,257	O'rtacha
	Samarqand	1,522	
	Farg'ona	1,294	
0,051-1,230	Buxoro	0,658	O'rtachadan past
	Surxondaryo	0,652	
	Jizzax	0,622	
	Xorazm	0,513	
	Sirdaryo	0,387	
	Navoiy	0,285	

⁵² O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari

Qorako'ltog'iston Respublikasi	0,051
-----------------------------------	-------

Hududlarda KBXT faoliyati samaradorligini aniqlashning yana bir asosiy ko'rsatkichlaridan biri bu – bir korxonaga to'g'ri keladigan YaQQ hisoblanadi. Respublikamiz hududlari bo'yicha o'rtacha bir KBXTga to'g'ri keladigan YaQQning o'zgarishini aniqlashda quyidagi formuladan foydalanishni tavsiya etamiz:

$$I_w = \frac{\sum (\frac{Q_1}{K_1} : \frac{Q_0}{K_0}) \cdot K_1}{\sum K_1} \quad 53$$

Bu yerda: Q0, Q1 – bazis va joriy davrda KBXT tomonidan ishlab chiqarilgan YaQQ hajmi (2021 yil bahosida); K0, K1 – bazis va joriy davrda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni.

2.13-jadval

O'zbekiston Respublikasi hududlarida KBXTga to'g'ri keladigan YaQQ dinamikasi (oldingi yilga nisbatan marta)⁵⁴

Hududlar	2011 y.	2012 y.	2013 y.	2014 y.	2015 y.	2016 y.	2017 y.	2018 y.	2019 y.	2020 y.	2021 y.	o'rtacha
Qorako'ltog'iston Respublikasi	0,046	0,051	0,048	0,046	0,054	0,050	0,044	0,040	0,034	0,036	0,042	0,044
Andijon	2,141	2,328	2,417	2,356	2,470	2,354	2,092	1,750	1,625	1,478	1,661	2,030
Buxoro	0,662	0,610	0,532	0,467	0,581	0,548	0,574	0,560	0,578	0,646	0,768	0,589
Jizzax	0,633	0,769	0,861	0,831	0,839	0,736	0,661	0,671	0,547	0,588	0,681	0,704
Kashkadaryo	2,382	2,624	2,553	2,310	2,242	2,022	1,583	1,341	1,209	1,205	1,355	1,814
Navoiy	0,354	0,343	0,396	0,420	0,538	0,546	0,551	0,470	0,444	0,607	0,601	0,470
Namangan	1,980	1,880	1,941	2,100	2,680	2,162	1,991	1,572	0,871	1,105	1,415	1,714
Samarkand	1,123	1,182	0,991	1,046	0,956	1,029	0,930	0,978	0,927	1,002	1,224	1,031
Surxondaryo	0,785	0,883	0,711	0,896	0,733	0,697	0,616	0,523	0,445	0,474	0,565	0,649
Sirdaryo	0,694	0,776	0,581	0,735	0,780	0,741	0,704	0,658	0,540	0,528	0,586	0,660
Toshkent	2,652	2,509	2,835	2,987	3,429	3,009	2,716	2,688	2,264	2,523	3,132	2,778

⁵³ Muallif tavsiya etayotgan formula

⁵⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari

Fargona	0,948	0,850	0,857	0,915	1,072	0,982	0,816	0,770	0,668	0,734	0,844	0,85
Xorazm	0,670	0,703	0,645	0,639	0,702	0,625	0,502	0,500	0,409	0,445	0,512	0,56
Urtacha	0,8	0,8	0,8	0,8	0,9	0,8	0,7	0,6	0,5	0,6	0,7	0,76
	16	46	12	40	11	45	58	97	93	46	48	8

O'zbekiston Respublikasi hududlarida 2011-2021 yillarda o'rtacha bir KBXTga to'g'ri keladigan YaQQ o'zgarishining eng yuqori ko'rsatkichi 2015 yilda 0,911 martaga teng bo'lib, eng past ko'rsatkichi 2019 yilda 0,593 martani tashkil qilgan (2.3.3- jadval).

1-guruh. 1,866 –

2,778 2-guruh. 0,955 – 1,866

3-guruh. 0,044 – 0,955

2011-2021 yillarda KBXTda faoliyat yuritayotgan bir korxonaga to'g'ri keladigan YaQQning oldingi yilga nisbatan o'zgarishini o'rtachadan yuqori hududlarga Toshkent (2,778) va Andijon (2,030) kirgan bo'lsa, o'rtacha hududlarga Qashqadaryo (1,814), Namangan (1,714), Samarqand (1,031) kirgan. O'rtachadan past hududlarga esa, Farg'ona (0,852), Jizzax (0,704), Sirdaryo (0,660), Surxondaryo (0,649), Buxoro (0,589), Xorazm (0,568), Navoiy (0,470), Qoraqalpog'iston Respublikasi (0,044) kirgan. Yuqoridagi statistik tahlillardan ko'rinib turibdiki, o'rtachadan past bo'lgan 8 ta hududda faoliyat yuritayotgan bir korxonaga to'g'ri keladigan YaQQ past darajada ekanligini ko'rishimiz mumkin (17-jadval).

2.13-jadval

O'zbekiston Respublikasi hududlarida KBXTga to'g'ri keladigan YaQQ dinamikasining guruhlanishi⁵⁵

Guruxlar	Xududlar	KRXTga to'g'ri keladigan dinamikasi	Baxolanishi
1,866-2,778	Toshkent	2,778	O'rtachadan yuqori
	Andijon	2,030	
	Kashkadaryo	1,814	

⁵⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari


0,955-1,866	Namangan	1,714	O'rtacha
	Samarkand	1,031	
0,044-0,955	Fargona	0,852	O'rtachadan past
	Jizzax	0,704	
	Sirdaryo	0,660	
	Surxondaryo	0,649	
	Buxoro	0,589	
	Xorazm	0,568	
	Navoiy	0,470	
	Korakalnoqiston Respublikasi	0,044	

Hududlarda KBXT faoliyati samaradorligini aniqlashning yana bir asosiy ko'rsatkichlaridan biri bu – investitsiya qaytimi hisoblanadi. Respublikamiz hududlari bo'yicha investitsiya qaytimini hisoblashda quyidagi formuladan foydalanishni tavsiya etamiz:

$$I_{IQ} = \frac{\sum Q}{\sum I} \quad 56$$

Bu yerda: $\sum Q$ – joriy davrda KBXT tomonidan ishlab chiqarilgan YaQQ hajmi (2021 yil bahosida);

$\sum I$ – joriy davrda kiritilgan investitsiyalar hajmi (2021 yil bahosida).




2.4-rasm. KBXT sohasida investitsiya qaytimi, marta⁵⁷

⁵⁶ Muallif tavsiya etayotgan formula

⁵⁷ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari

Hududlarda investitsiya qaytimini 2010-2021 yillarga tahlil qiladigan bo‘lsak, 2010 yilda investitsiya qaytimi boshqa yillarga nisbatan yuqori bo‘lgan. 2010 yilda eng yuqori hududlarga, ya’ni, Surxondaryoda bir birlik investitsiya kiritish natijasida 13,4 birlik YaQQ yaratilganigini ko‘rishimiz mumkin xuddi shunday boshqa hududlarda ham Toshkent (13,2), Sirdaryo (11,9), Xorazm (11,9), Samarqand (11,3), Farg‘ona (10,7), Jizzax (10,5), Navoiy (10,4) kirgan. Eng past hududlarga esa Buxoro (7,0), Qoraqalpog‘iston Respublikasi (7,1), Andijon (7,3) viloyatlarida bo‘lgan. Qilingan tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, oxirgi yillarda investitsiya qaytimining kamayganini ko‘rishimiz mumkin. Masalan, 2021 yilda eng yuqori investitsiya qaytimiga ega bo‘lgan hududlarga Qashqadaryo (7,2), Qoraqalpog‘iston Respublikasi (5,9), Andijon (4,7), Buxoro (4,4), Surxondaryo (4,3), Samarqand (4,1), Farg‘ona (4,1) viloyatlari kirgan (2.5-rasm).



2.5-rasm. KBXT sohasida investitsiya sig‘imi, marta⁵⁸

2010 yilda eng kam investitsiya sarflab eng ko‘p YaQQni yaratgan hududlarga, Surxondaryo hisoblanib, bir birlik mahsulot ishlab chiqarish uchun 0,075 birlik investitsiya kiritilganligini ko‘rishimiz mumkin, xuddi shunday boshqa hududlarda ham Toshkent (0,076), Sirdaryo (0,084), Xorazm (0,084), Samarqand (0,088), Farg‘ona (0,094), Jizzax (0,096), Navoiy (0,096) kiradi. Eng ko‘p investitsiya jalb qilib eng kam YaQQ yaratgan hududlarga Buxoro (0,143), Qoraqalpog‘iston Respublikasi (0,142), Andijon (0,137) viloyatlari ekanligi aniqlandi (11-rasm).

II bob bo‘yicha xulosa.

⁵⁸ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi ma‘lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari

Kichik biznesning YaIMdagi ulushi ko'payishi ular tomonidan yetishtirilayotgan mahsulotlar hajmini oshirish borasida olib borilayotgan islohotlar natijasidir. Darvoqe, so'nggi yillar (2010 – 2020)da kichik biznesning YaIMdagi ulushi 25,5 foiz bandga oshib, 2020 yilda 53,9 foizni tashkil qilgan.


Shu sababli, hududlarda KBXTni rivojlantirish jarayonlarining tashkiliy iqtisodiy mexanizmlarini yanada takomillashtirish va samaradorligini oshirish, ularning tashqi iqtisodiy faoliyatdagi rolini kuchaytirish, aholini ish bilan bandligini ta'minlash orqali daromadlarini ko'paytirish imkoniyatlaridan to'laqonli foydalanish, hududlarda KBXT sub'ektlarining turli darajalarda rivojlanish omillari va tendensiyalarini zamonaviy statistik usullarda baholab, hududlarning innovasion rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

**III BOB. HUDUDLARIY TADBIRKORLIK FAOLIYATI
RIVOJLANISHIDA STATISTIK TAHLILNING AHAMIYATINI
OSHIRISH YO‘LLARI**

**3.1. Hududiy tadbirkorlik faoliyatini Panel tahlili asosida ekonometrik
modellash tirishni takomillashtirish**

Ma'lumki, aholi turmush darajasini oshishida KBXTning o'rni beqiyosligidir. Mamlakatimizning YaIM tarkibidagi KBXTning YaQQni ko'paytirish jarayonida ishtirok etuvchi hamda ularga bevosita va bilvosita ta'sir qiluvchi, shu bilan birgalikda, bir-biri bilan o'zaro stohastik aloqada bo'lgan omillar mavjud. Bu omillar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik va o'zaro ta'sir darajasini aniqlash, mamlakatimizda KBXTni statistik tahlil qilish usullarini takomillashtirish, kichik korxonalar rivoji tendensiyalarini prognoz qilish, tahlil natijalari asosida qay bir sohaga e'tibor qaratish lozimligini aniqlash, korxonalarining rivojlanish tendensiyalari modelini tuzish va uni baholash hamda rivojlanish yo'nalishlarini belgilash va tanlashga imkoniyat yaratadi.

O'zgaruvchan miqdorlar o'rtasidagi statistik bog'lanishlar korrelyatsion-regression tahlil usulidan foydalanib tadqiq qilish samarali bo'lganligi bois dissertatsiya ishida shu yondashuvdan foydalanildi. Ushbu yondashuv asosida tanlangan ko'p omilli regressiya tenglamasi va tadqiq etilayotgan jarayonda qatnashayotgan ko'rsatkichlar o'rtasidagi bog'lanish darajasini aniqlash va natijada ahamiyati past darajadagi omillarni ekonometrik modelga kiritmaslikka asos bo'ldi. Quyida KBXT jarayonlarini statistik baholash usullari taqdim etilgan:



3.1-rasm. KBXT jarayonlarini statistik baholash usullari⁵⁹

3.1-rasmdan ko‘rinadiki, KBXT jarayonlarni statistik baholashni bir necha usullari mavjud bo‘lib, biz tadqiqotimizda Panel tahlilidan foydalanib, KBXT jarayonlarini Respublikadagi holatini statistik baholaymiz. KBXT ko‘rsatkichlarini vaqt qatorlari asosida shakllantirilishini inobatga olish lozim deb hisoblaymiz.

Hududlarni innovatsion rivojlanishida KBXTni rivojlanish darajasini to‘liq va har tomonlama tadqiq qilish, modellashtirish uchun yuqoridagi gipotezalar va

⁵⁹ Muallif ishlanmasi

boshqa ko‘plab ilmiy izlanishlarga murojaat qilib, “Panel” modeli asosida YaQQga KBXT sohasining ta’sir darajasi ekonometrik modellashtirildi.

“Panel” modeli, Panel ma’lumotlari asosida shakllantiriladi, ya’ni kesishuvchi va vaqt qatorlari orqali tuzilgan ma’lumotlar ro‘yxatini hosil qiladi.

Umuman olganda “Panel” modeli tenglamalarida it birgalikda qo‘llaniladi. Masalan, *xit* deyilganda *i* hududda *t* vaqtdagi ko‘rsatkichni ifodalaydi.

“Panel” modeli quyidagi ekonometrik modellarni o‘z ichiga qamrab oladi: Pooled OLS estimator (POLSE), Fixed effects estimator(FEE), First differences estimator (FDE), Random effects estimator(REE).

Pols modeli: $y_{it} = \beta_0 + \beta_1 x_{1it}$

$$POLS \text{ modeli: } y_{it} = \beta_0 + \beta_1 x_{1it} + \beta_2 x_{2it} + u_{it} \quad (3.1)$$

$$FEE \text{ modeli: } y_{it} - \bar{y}_i = \beta_1 (x_{1it} - \bar{x}_{1i}) + \beta_2 (x_{2it} - \bar{x}_{2i}) + (u_{it} - \bar{u}_i) \quad (3.2)$$

$$FDE \text{ modeli: } \Delta y_{it} = \beta_0 + \beta_1 \Delta x_{1it} + \beta_2 \Delta x_{2it} + \Delta u_{it} \quad (3.3)$$

$$REE \text{ modeli: } y_{it} - \theta \bar{y}_i = \beta_0 + \beta_1 (x_{1it} - \theta \bar{x}_{1i}) + \beta_2 (x_{2it} - \theta \bar{x}_{2i}) + (a_i - \theta \bar{a}_i) + (u_{it} - \bar{u}_i) \quad (3.4)$$

Birinchi model eng kichik kvadratlar usuli yordamida tuziladigan ko‘p omilli model bilan bir turdagi holatni ifodalaydi (3.1), ikkinchi modelda hududlar bo‘yicha o‘rtacha o‘zgarishni (3.2), uchinchi modelda ko‘rsatkichlarning oldingi yillardagi o‘zgarish darajasiga ta’siri inobatga olingan (3.3), to‘rtinchi modelda esa hududlar bo‘yicha o‘rtacha tasodifiylik hisobga olingan (3.4).

Modellarning ishonchligi “Hausman” va “Breusch Pagan” testlari orqali tekshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi hududlarini innovatsion rivojlanishida KBXTning YaQQga ta’sirini o‘rganish maqsadida, ushbu sohadagi asosiy 9 ta tarmoq bo‘yicha statistik ma’lumotlar to‘plandi. Ya’ni, YaQQga eng asosiy ta’sir ko‘rsatuvchi sanoat (x1), qishloq xo‘jaligi (x2), qurilish (x3), investitsiya (x4), chakana savdo (x5), eksport (x6), import (x7), band aholi (x8), ko‘rsatilgan xizmatlar (x9)ning statistik ko‘rsatkichlari olinib, ushbu ko‘rsatkich o‘zgarishiga ta’sir qiluvchi Panel ma’lumotlari tuzildi.

KBXTning YaQQga ta'sir qiluvchi 9 ta ko'rsatkich respublika viloyatlari kesimida 2010-2021 yillar bo'yicha statistik ma'lumotlar asosida jamlanib, barcha ko'rsatkichlar logarifm holatiga o'tkazilib, ularning qiymatlari asosida "STATA" dasturi orqali "Panel" modellari ishlab chiqildi.


3.1-jadval

"Panel" modellari asosida KBXTning YaQQga ta'sirini ekonometrik modellashtirish⁶⁰

	Kursatkichlar	POLS	FEE mode	FDE modt	REE modt
1	Sanoat (S)	0,127	0,176	0,144	0,148
2	Kishlok xujaligi (QX)	0,014	-0,251	0,052	-0,011
3	Kurilish (Q)	-0,142	-0,068	-0,021	-0,068
4	Investitsiya (I)	0,041	0,011	0,036	0,016
5	Chakana savdo ChS)	0,299	0,005	0,074	0,057
6	Eksport (Ek)	0,055	0,009	-0,015	0,016
7	Import (Im)	-0,042	-0,067	-0,027	-0,065
8	Bandlar (B)	0,020	-0,002	-0,002	0,007
9	Xizmatlar (X)	0,224	0,354	0,152	0,299

Ushbu 18-jadvalda Panel POLS, FEE, FDE, REE ekonometrik modellarining regression koeffitsientlari keltirilgan bo'lib, jumladan POLS modelida chakana savdo (0,299) va xizmatlar (0,224) ga teng, ya'ni chakana savdo va xizmatlarning bir foizga ortishi, mamlakatda umumiy KBXTning YaQQni mos ravishda 0,3 % va 0,22% ortishiga olib keladi.

⁶⁰ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari



3.2-rasm. Korrelyatsion bog‘lanish

3.1-rasmdan ko‘rinib turibdiki, tanlab olingan omil belgilar va natijaviy belgi o‘rtasida turli xil bog‘lanishlar mavjud.

3.1-jadval ma‘lumotlari asosida modellarning ekonometrik ko‘rinishi quyidagicha shakllantirildi:

$$POLS\ modeli: \quad UD_{it} = 0,127S_{it} + 0,014QX_{it} - 0,142Q_{it} + 0,041I_{it} + 0,299ChS_{it} + 0,055Ek_{it} - 0,042Im_{it} + 0,020B_{it} + 0,224B_{it} + u_{it}$$

$$FEE\ modeli: \quad UD_{it} = 0,176S_{it} - 0,251QX_{it} - 0,068Q_{it} + 0,011I_{it} + 0,005ChS_{it} + 0,009Ek_{it} - 0,068Im_{it} - 0,002B_{it} + 0,354B_{it} + u_{it}$$

$$FDE\ modeli : \quad UD_{it} = 0,144S_{it} + 0,052QX_{it} - 0,021Q_{it} + 0,036I_{it} + 0,074ChS_{it} - 0,015Ek_{it} - 0,027Im_{it} - 0,002B_{it} + 0,152B_{it} + u_{it}$$

$$REE\ modeli \quad UD_{it} = 0,148S_{it} - 0,011QX_{it} - 0,068Q_{it} + 0,016I_{it} + 0,057ChS_{it} + 0,016Ek_{it} - 0,065Im_{it} + 0,007B_{it} + 0,299B_{it} + u_{it}$$

Ushbu 9 ta ko‘rsatkichni KBXTning YaQQga ta’sir etishini to‘rtta guruhga, ya’ni, kuchli ijobiy, kuchli salbiy, kuchsiz ijobiy, kuchsiz salbiy guruhlariga bo‘lib tahlilni amalga oshiramiz.

Kuchli ijobiy ta’siri. Birinchi modelda kuchli ijobiy ta’sir ko‘rsatgan ko‘rsatkichlarga sanoat, chakana savdo va xizmatlar sohasi kiradi. Ya’ni, O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha KBXTda sanoat, chakana savdo va xizmatlar hajmining 1 foizga oshishi ushbu sohadagi YaQQning mos ravishda 0,3; 0,3; 0,2

foizga oshishiga ta'sir ko'rsatar ekan. Ikkinchi modelda hududlar bo'yicha o'rtacha sanoat va xizmatlar hajmining 1 foizga oshishi YaQQning mos ravishda 0,2 va 0,4 foizga oshishiga olib kelar ekan. Uchinchi modelda vaqt omili hisobiga bir yildan keyingi ta'siri hisoblangan. Ya'ni, bu modelda ham sanoat va xizmatlar hajmining bir foizga oshishi mos ravishda YaQQning 0,14 va 0,15 foizga oshishini ko'rsatmoqda. To'rtinchi modelda tasodifiyliklar hisobga olinganda sanoat va xizmatlar hajmining bir foizga oshishi YaQQning mos ravishda 0,15 va 0,3 foizga oshishiga olib keladi (3.2-rasm).

Kuchli salbiy ta'siri. Birinchi modelda kuchli salbiy ta'sir ko'rsatgan ko'rsatkichga qurilish tarmog'i kiradi. Ya'ni, O'zbekiston Respublikasi bo'yicha KBXTda qurilish hajmining 1 foizga oshishi ushbu sohadagi YaQQning – 0,14 foizga kamayishiga olib keladi. Ikkinchi modelda hududlar bo'yicha o'rtacha qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmining 1 foizga oshishi YaQQning – 0,25 foizga kamayishini ko'rsatmoqda. Uchinchi modelda vaqt omili hisobiga bir yildan keyingi ta'siri hisoblangan. Ya'ni, bu modelda qurilish va import hajmining bir foizga oshishi mos ravishda YaQQning – 0,02 va – 0,07 foizga kamayishiga olib keladi. To'rtinchi modelda tasodifiyliklar hisobga olinganda qurilish va import hajmining bir foizga oshishi YaQQning mos ravishda – 0,07 va – 0,07 foizga kamayishini ko'rsatmoqda.


Kuchsiz ijobiy ta'siri. Birinchi modelda kuchsiz ijobiy ta'sir ko'rsatgan ko'rsatkichlarga qishloq xo'jaligi, investitsiya, eksport va bandlik kiradi. Ya'ni, O'zbekiston Respublikasi bo'yicha KBXTda qishloq xo'jaligi, investitsiya, eksport hajmi va bandlik darajasining 1 foizga oshishi ushbu sohadagi YaQQning mos ravishda 0,01; 0,04; 0,06; 0,02 foizga oshishiga ta'sir ko'rsatar ekan.

Ikkinchi modelda hududlar bo'yicha o'rtacha investitsiya, chakana savdo va eksport hajmlarining 1 foizga oshishi YaQQning mos ravishda 0,01; 0,005 va 0,006 foizga oshishiga olib kelar ekan. Uchinchi modelda vaqt omili hisobiga bir yildan keyingi ta'siri hisoblangan. Ya'ni, bu modelda qishloq xo'jaligi, investitsiya va chakana savdo hajmining bir foizga oshishi mos ravishda YaQQning 0,05; 0,04 va 0,07 foizga oshishini ko'rsatmoqda. To'rtinchi modelda tasodifiyliklar hisobga

olinganda investitsiya, chakana savdo, eksport hajmlari va bandlik darajasining bir foizga oshishi YaQQning mos ravishda 0,02; 0,06; 0,02 va 0,01 foizga oshishiga olib keladi.

Kuchsiz salbiy ta'siri. Birinchi modelda kuchsiz salbiy ta'sir ko'rsatgan ko'rsatkichga import kiradi. Ya'ni, O'zbekiston Respublikasi bo'yicha KBXTda import hajmining 1 foizga oshishi ushbu sohadagi YaQQning – 0,04 foizga kamayishiga olib keladi. Ikkinchi modelda hududlar bo'yicha o'rtacha qurilish, import hajmlari va bandlar darajasining 1 foizga oshishi YaQQning – 0,068; – 0,067 va – 0,002 foizga kamayishini ko'rsatmoqda. Uchinchi modelda vaqt omili hisobiga bir yildan keyingi ta'siri hisoblangan. Ya'ni, bu modelda eksport hajmi va bandlik darajasining bir foizga oshishi mos ravishda YaQQning – 0,015 va – 0,002 foizga kamayishiga olib keladi. To'rtinchi modelda tasodifiyliklar hisobga olinganda qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmining bir foizga oshishi YaQQning – 0,01 foizga kamayishini ko'rsatmoqda.

Tadqiqotimiz davomida YaQQning oshishiga kuchli ijobiy va kuchli salbiy ta'sir etuvchi omillarni belgilar asosida yana bir marta Panel modellari ishlab chiqildi.



3.3-rasm. Kuchli ijobiy korrelyatsion bog'lanish

15-rasmdan ko'rinadiki, tanlab olingan omil belgilar va natijaviy belgi o'rtasida to'g'ri kuchli bog'lanish mavjud.

3.2 – jadval

Panel modellari asosida YaQQni ekonometik modellashtirish⁶¹

	Kursatkichlar	POLS modeli	FDE modeli	FEE modeli	REE modeli
1	Sanoat (S=X ₁)	0,133	0,222	0,134	0,206
2	Chakana savdo	0,381	-0,031	0,066	0,013
3	Xizmatlar (X=X ₉)	0,073	0,195	0,163	0,186

3.2-jadval ma'lumotlari asosida modellarning ekonometrik ko'rinishi shakllantirildi:

$$POLS\ modeli: UD_{it} = 0,133S_{it} + 0,381ChS_{it} + 0,073X_{it} + u_{it}$$

$$FEE\ modeli: UD_{it} = 0,222S_{it} - 0,031ChS_{it} + 0,195X_{it} + u_{it}$$

$$FDE\ modeli : UD_{it} = 0,134S_{it} + 0,066ChS_{it} + 0,163X_{it} + u_{it}$$

$$REE\ modeli UD_{it} = 0,206S_{it} + 0,013ChS_{it} + 0,186X_{it} + u_{it}$$

Birinchi model eng kichik kvadratlar usuli yordamida tuziladigan ko'p omilli model bilan bir turdagi holatni ifodalab, KBXTda sanoat mahsulotlari hajmining bir foizga oshishi natijasida YaQQning 0,13 foizga oshishiga olib keladi. Xuddi shunday chakana savdo va xizmatlar hajmining bir foizga oshishi natijasida YaQQning mos ravishda 0,38 va 0,07 foizga oshishini tahlil qildik.

Ikkinchi *FEE modeli* hududlar bo'yicha sanoat va xizmatlar sohasi hajmining o'rtacha o'zgarishini ifodalab beradi. Ushbu modelda mamlakatimiz hududlarida sanoat va xizmatlar sohasining bir foizga o'sishi natijasida YaQQning mos ravishda 0,22 va 0,19 foizga oshishini, chakana savdo hajmining esa bir foizga oshishi YaQQning 0,03 foizga kamayishini ko'rsatmoqda.

Uchinchi modelda ko'rsatkichlarning oldingi yillardagi o'zgarish darajasiga ta'siri natijasida sanoat, chakana savdo va xizmatlar hajmining bir foizga oshishi natijasida YaQQning mos ravishda 0,13; 0,06 va 0,16 foizga YaQQning oshishini ko'rsatmoqda.

To'rtinchi modelda esa hududlar bo'yicha o'rtacha tasodifiylikni hisobga olgan holda sanoat, chakana savdo va xizmatlar hajmining bir foizga oshishi natijasida YaQQning mos ravishda 0,21; 0,01 va 0,19 foizga YaQQning oshishiga olib keladi.

⁶¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari

Muxtasar qilib aytadigan bo'lsak, mamlakatimiz hududlarida KBXTni rivojlantirish orqali YaQQni yanada oshirish uchun sanoat va xizmatlar sohasini rivojlantirish lozim deb hisoblaymiz. Buni "Panel" modelini tahlil qilish natijasida shunday xulosaga keldik.

3.2. Hududlariy tadbirkorlik faoliyatini baholash va prognozlash usulini takomillashtirish

Hududlarni innovatsion rivojlanishida KBXT milliy iqtisodiyotni tarkibiy qismi sifatida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dinamikasini prognozlashda quyidagi yo'nalishlarga e'tibor qaratish zarur: hududlarning ilmiy-texnik, iqtisodiy va mehnat resurslari. Ularning hammasi o'zaro aloqador va bir-biriga bog'liq bo'lib, mantiqiy yaxlitlikni aks ettiradi. Ammo, prognozlash qo'lami nuqtai nazaridan bu yo'nalishlarning nisbatan roli bir xil emas.

Ma'lumotlarni qayta ishlashning turli-tumanligi bir necha modellar qo'llashni taqozo etadi. Barcha usullarga tegishli xulosalarning umumiyligi tadqiqotning realligini, xulosalarning uslublar bo'yicha turlichaligi tadqiqotning sub'ektivligini ko'rsatadi. KBXT ob'ektlarini boshqarish uchun ba'zan noparametrik statistik usullarni qo'llashni tavsiya etamiz. Ayniqsa, ulardan KBXT korxonalarini boshqarishda qisqa muddatlarga prognozlashtirishda foydalanish tavsiya etiladi.

3.3.4 modelda natijaviy va omil belgilarning qanday o'zgarishini va ular orasidagi o'zaro bog'liqlikni o'rganish uchun multikollinearlikka tekshirilishi lozim. Buning uchun uning korrelyatsion jadvalini tuzamiz. YaIMga KBXTning hududlar bo'yicha ta'sirini tahlil qilamiz. Ta'sir qiluvchi omillar Qoraqalpog'iston Respublikasi (X1), Andijon (X2), Buxoro (X3), Jizzax (X4), Qashqadaryo (X5), Navoiy (X6), Namangan (X7), Samarqand (X8), Surxondaryo (X9), Sirdaryo (X10), Toshkent (X11), Farg'ona (X12), Xorazm (X13) viloyatlari (1-variant).

3.3-jadval

Korrelyatsion bog'liqlik jadvali

	Y_t	X_1	X_2	X_3	X_4	X_5	X_6	X_7	X_8	X_9	X_{10}	X_{11}	X_{12}	X_{13}
Y_t	1	0,991	0,963	0,983	0,997	0,959	0,516	0,993	0,963	0,995	0,956	0,875	0,986	0,990
X1	0,991	1	0,984	0,991	0,994	0,948	0,592	0,992	0,982	0,995	0,96	0,918	0,995	0,995
X2	0,963	0,984	1	0,993	0,975	0,955	0,712	0,971	0,991	0,978	0,97	0,97	0,991	0,987
X3	0,983	0,991	0,993	1	0,992	0,973	0,652	0,988	0,988	0,994	0,976	0,945	0,996	0,997

X4	0,997	0,994	0,975	0,992	1	0,967	0,561	0,996	0,976	0,998	0,964	0,900	0,991	0,996
X5	0,959	0,948	0,955	0,973	0,967	1	0,589	0,949	0,937	0,96	0,981	0,902	0,964	0,964
X6	0,516	0,592	0,712	0,652	0,561	0,589	1	0,579	0,715	0,589	0,626	0,853	0,625	0,625
X7	0,993	0,992	0,971	0,988	0,996	0,949	0,579	1	0,983	0,998	0,95	0,901	0,986	0,996
X8	0,963	0,982	0,991	0,988	0,976	0,937	0,715	0,983	1	0,983	0,983	0,983	0,983	0,983
X9	0,995	0,995	0,978	0,994	0,998	0,960	0,589	0,998	0,983	1	0,961	0,910	0,992	0,998
X10	0,956	0,960	0,970	0,976	0,964	0,981	0,626	0,950	0,948	0,961	1	0,930	0,979	0,964
Xii	0,875	0,918	0,970	0,945	0,900	0,902	0,853	0,901	0,961	0,910	0,930	1	0,936	0,929
X12	0,986	0,995	0,991	0,996	0,991	0,964	0,625	0,986	0,982	0,992	0,979	0,936	1	0,994
X13	0,990	0,995	0,987	0,997	0,996	0,964	0,625	0,996	0,990	0,998	0,964	0,929	0,994	1

YaIMga KBXT sohasida yaratilgan innovatsion mahsulotlar va ularga ta'sir etuvchi omillar: joriy qilingan innovatsiyalar (X1), ishlab chiqarilgan innovatsion tovarlar, ishlar va xizmatlar (X2), texnologik, marketing tashkiliy innovatsiyalarga qilingan xarajatlar (X3) bo'yicha ekonometrik model tuzish va uni tahlil qilish uchun eng kichik kvadratlar usulidan foydalanildi. Tuzilgan ko'p omilli 1 2 10 3 Y 11,9 0,13x 0,10x 0, x YaIM = + + + (2-variant) ekonometrik modelning statistik ahamiyatligi va uni tadqiq qilinayotgan jarayonga mos kelishligini aniqlash uchun Fisherning F kriteriyasidan foydalanildi.

3.4-jadval

O'zbekiston Respublikasi hududlarida YaIM va YaHMga KBXTning regressiya modeli va sifat mezonlari⁶²

	VO (Standart xatolik)	$r_{x,y}$	F (F mohiyati)	R-kvadrat	t-statistika (P-moxiyati)
1-variant	18091,5 (0,02)	0,90	99,6 (0000)	0,8139	463,2 (0000)
2-variant	1203,6 (0,13)	0,92	37,3 (0000)	0,8461	56,5 (0000)

F mezonning haqiqiy qiymati Fhaq.=99,6 (1-variant), Fhaq.=37,3 (2-variant). Agar hisoblangan qiymat jadvaldagi qiymatdan yuqori bo'lsa, tuzilgan ko'p omilli ekonometrik model statistik ahamiyatli deyiladi. Fhaq. > Fjad. Shartni qanoatlantirdi, shu sababli undan kelgusi davrlarga prognoz qilishda foydalanish mumkin.

⁶² O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari

Ko'p omilli ekonometrik model parametrlari va korrelyatsiya koeffitsientining ishonch darajasini tekshirishda Studentning t kriteriyasidan foydalanildi. Bunda ham ko'p omilli ekonometrik modeldagi hisoblangan parametrlar uchun taq. > tjad qiymatidan yuqori bo'lishi lozim. $t=463,2$ (1-variant), $t=56,5$ (2-variant).

Ma'lumki determinatsiya koeffitsienti 0 dan 1 gacha bo'lgan qiymatlarni qabul qiladi. Tanlangan omil qiymati 1 ga yaqin bo'lsa, omil ta'siri kuchli bo'ladi. Ushbu holatda determinatsiya koeffitsienti $R^2 = 0,8139$ (1-variant), $R^2 = 0,8461$ (2-variant)ga teng bo'lib, tanlangan omil ko'rsatkichlar natijaga (Y) ta'siri 81,4 va 84,6 foizga teng ekanligi aniqlandi.

YaIMga 13 ta hududdagi KBXT sohasining YaQQni ta'siri orqali prognoz amalga oshirildi. Buning uchun 2010-2021 yillardagi YaIM va KBXTda yaratilgan YaQQni taqqoslama baholarga o'tkazib, prognozni amalga oshiramiz. Natijada quyidagi ko'rsatkichlarga ega bo'lingi (22-jadval).

Amalga oshirilgan prognoz natijalariga ko'ra (2021 yil bahosida) YaIM xajmi 2026 yilga borib 1-variantda 900458,1 mlrd.so'mni, 2-variant bo'yicha 877654,8 mlrd. so'mni tashkil etishi, YaIMda KBXTning ulushi esa 2026 yilda 1-variant bo'yicha 64,5 foizni, 2-variantda esa 61,5 foizni tashkil qilishi mumkinligi, shuningdek KBXT faoliyatining mamlakatimiz iqtisodiyotida barqaror, raqobatbardosh hamda muhim o'rinni egallovchi sohalardan biri ekanligi to'g'risida xulosa qilindi.

3.5-jadval

O'zbekiston Respublikasi YaIM va KBXTning YaQQ prognozi (2023 yil bahosida)⁶³

Yillar	YaIM, mlrd. sum		KBXTning YaVD, mlrd. sum		YaIMda KBXTning ulushi, %	
	1-variant	2-variant	1-variant	2-variant	1-variant	2-variant
2021*	734587,7	734587,7	403288,7	403288,7	54,9	54,9
2022	749714,3	756264,6	464273,8	460384,1	61,9	60,9
2023	784758,9	784927,8	490881,3	479091,5	62,6	61,0
2024	821507,8	814685,5	519052,9	498559,1	63,2	61,2
2025	860044,8	845579,9	548881,6	518817,8	63,8	61,4
2026	900458,1	877654,8	580465,6	539899,6	64,5	61,5

*Amaldagi ko'rsatkich

⁶³ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari

O‘zbekiston Respublikasi hududlari bo‘yicha KBXTning YaQQni prognoz qilish uchun 2010-2021 yillardagi YaQQ (Y), sanoat mahsulotlari (X1), qishloq xo‘jaligi (X2), qurilish (X3), investitsiya (X4), chakana savdo (X5), eksport (X6), import (X7), band aholi soni (X8), xizmatlar (X9) ko‘rsatkichlari olindi (1-variant, 3.6-jadval).

3.6-jadval

O‘zbekiston Respublikasi hududlari bo‘yicha KBXTning YaQQga ta‘sirining korrelyatsion-regression modellari⁶⁴

Xududlar	vo	PIXI	v 2X2	vzxz	v4X4	v 5X5	vbXb	v7X7	v8X8	v 9X9
Qorakalpogiston Respublikasi	-5,31	0,39	0,93	0,39	0,44	0,41	0,31	0,22	2,35	0,32
Andijon	6,21	0,49	1,5	0,79	0,66	0,66	0,44	0,44	4,11	0,44
Buxoro	4,99	0,56	1,35	0,54	0,54	0,56	0,39	0,29	1,75	0,40
Jizzax	5,69	0,40	1,22	0,47	0,25	0,47	0,16	0,23	2,17	0,35
Xashkadarvo	6,66	0,38	1,53	0,70	0,47	0,45	0,32	0,15	2,6	0,38
Navoiy	5,94	0,30	0,45	0,18	0,03	0,30	0,30	0,03	1,65	0,15
Namangan	-4,83	0,37	0,97	0,44	0,31	0,44	0,17	0,28	1,83	0,31
Samarqand	6,22	0,48	1,84	0,49	0,35	0,49	0,42	0,33	2,66	0,31
Surxondarvo	6,04	0,40	1,25	0,44	0,29	0,42	0,35	0,19	3,13	0,32
Sirdarvo	4,52	0,28	0,96	0,25	0,19	0,39	0,16	0,19	1,39	0,25
Toshkent	-4,48	0,42	1,38	0,24	0,26	0,33	0,06	0,15	1,5	0,23
Fargona	6,03	0,42	1,18	0,64	0,43	0,55	0,37	0,34	3,56	0,36
Xorazm	5,81	0,44	1,16	0,50	0,38	0,50	0,24	0,36	2,81	0,36

Tuzilgan ko‘p omilli (Qoraqalpog‘iston Respublikasi) 1 2 3 4 5 6 7 8 32 9 Y 5,31 0,39x 0,93x 0,39x 0,44x 0,41x 0,31x 0,22x 0,35x 0, x YQQ = - + + + + + + + + + (1-variant) ekonometrik modelning statistik ahamiyatligi va uni tadqiq qilinayotgan jarayonga mos kelishligini aniqlash uchun Fisherning F kriteriyasidan foydalanildi.

KBXTda innovatsion faoliyat bo‘yicha: joriy qilingan innovatsiyalar (X1), ishlab chiqarilgan innovatsion tovarlar, ishlar va xizmatlar hajmi (X2), texnologik, marketing tashkiliy innovatsiyalarga qilingan xarajatlar hajmi (X3) (2-variant, 24-jadval). Ushbu ko‘rsatkichlarni ham 2021 yil baholariga o‘tkazib, prognozni amalga oshirdik.

3.7-jadval

O‘zbekiston Respublikasi hududlari bo‘yicha KBXTning YaQQga ta‘sirining korrelyatsion-regressin modellari⁶⁵

⁶⁴ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi ma‘lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari

⁶⁵ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi ma‘lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari

Hududlar	R ₀	PIXI	R2X2	R3X3
Korakalpoqiston Respublikasi	9.31	-0.11	0.14	0.02
Andijon	9.78	0.17	0.08	0.09
Buxoro	9.56	0.16	0.11	0.11
Jizzax	9.17	0.13	0.11	0.11
Kashkadarvo	9.89	0.08	0.10	0.01
Navoiy	9.88	-0.01	-0.02	-0.01
Namangan	9.54	0.12	0.09	0.06
Samarkand	10.17	0.09	0.06	0.06
Surxondarvo	8.98	0.37	0.10	0.12
Sirdarvo	8.77	0.12	0.06	0.05
Toshkent	10.29	0.06	0.04	0.05
Fargona	9.43	0.22	0.10	0.14
Xorazm	9.43	0.11	0.11	0.02

Tuzilgan ko'p omilli 1 2 10 3 Y 11,9 0,13x 0,10x 0, x YQQ = + + + (2-variant) ekonometrik modelning statistik ahamiyatligi va uni tadqiq qilinayotgan jarayonga mos kelishligini aniqlash uchun Fisherning F kriteriyasidan foydalanildi.

3.8-jadval

O'zbekiston Respublikasi hududlarining YaHMga KBXTning regressiya modeli va sifat mezonlari⁶⁶

Xududlar	R ₀ (Standartnaya oshibka)	$\sigma_{x,u}$	F (Znachimost F)	R-kvadrat	t-statistika (P-Znachenie)
<i>1-variant</i>					
Korakalpoqiston Respublikasi	713,65 (0,04)	0,8877	71,69 (0000)	0,7880	150,40 (0000)
Andijon	1814,46 (0,04)	0,8890	71,52 (0000)	0,7904	197,03 (0000)
Buxoro	1376,55 (0,04)	0,6355	26,66 (0000)	0,4040	161,62 (0000)
Jizzax	824,31 (0,04)	0,8412	80,31 (0000)	0,7076	152,43 (0000)
Kashkadaryo	1232,73 (0,05)	0,8542	49,50 (0000)	0,7297	139,59 (0000)
Navoiy	865,75 (0,06)	0,6825	23,99 (0000)	0,4658	120,88 (0000)
Namangan	1510,95 (0,04)	0,9158	104,10 (0000)	0,8386	181,82 (0000)
Samarkand	2432,82 (0,04)	0,8932	59,82 (0000)	0,7979	192,70 (0000)
Surxondaryo	1074,83 (0,05)	0,9009	73,09 (0000)	0,8116	146,38 (0000)
Sirdaryo	672,69 (0,05)	0,7759	40,23 (0000)	0,6020	138,57 (0000)
Toshkent	3231,72 (0,04)	0,5032	130,96 (0000)	0,2532	180,92 (0000)
Fargona	2047,84 (0,04)	0,9153	84,3461 (0000)	0,8378	197,73 (0000)
Xorazm	894,68 (0,04)	0,9309	918871 (0000)	0,8666	176,95 (0000)
<i>2-variant</i>					
Qorakalpoqiston Respublikasi	24,21 (0,19)	0,4356	2,52 (0000)	0,1898	16,50 (0000)
Andijon	16,87 (0,81)	0,8422	15,04 (0000)	0,7093	9,87 (0000)
Buxoro	39,82 (0,55)	0,8559	17,78 (0000)	0,7326	18,93 (0000)
Jizzax	33,58 (0,22)	0,7715	13,44 (0000)	0,5953	16,19 (0000)
Kashkadaryo	9,25 (0,39)	0,5261	3,00 (0000)	0,2768	5,70 (0000)
Navoiy	59,15 (0,23)	0,8726	24,49 (0000)	0,7615	18,02 (0000)
Namangan	59,72 (0,21)	0,8444	20,93 (0000)	0,7131	19,19 (0000)
Samarkand	42,64 (0,28)	0,8469	16,03 (0000)	0,7172	13,23 (0000)
Surxondaryo	46,62 (0,13)	0,8966	26,01 (0000)	0,8039	28,97 (0000)
Sirdaryo	60,19 (0,25)	0,8179	13,49 (0000)	0,6687	16,39 (0000)
Toshkent	99,88 (0,35)	0,8418	15,46 (0000)	0,7087	13,30 (0000)
Fartona	97,75 (0,10)	0,8847	42,37 (0000)	0,7827	44,51 (0000)
Xorazm	16,83 (0,26)	0,3380	0,98 (0000)	0,1142	10,70 (0000)

⁶⁶ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari

Qoraqalpog'iston Respublikasi F mezonining haqiqiy qiymati $F_{haq.}=71,69$ (1-variant), $F_{haq.}=2,52$ (2-variant). Agar hisoblangan qiymat jadvaldagi qiymatdan yuqori bo'lsa, tuzilgan ko'p omilli ekonometrik model statistik ahamiyatli deyiladi. $F_{haq.} > F_{jad.}$ shartni qanoatlantirdi, shu sababli undan kelgusi davrlarga prognoz qilishda foydalanish mumkin.

Ko'p omilli ekonometrik model parametrlari va korrelyatsiya koeffitsientining ishonch darajasini tekshirishda Studentning t kriteriyasidan foydalanildi. Bunda ham ko'p omilli ekonometrik modeldagi hisoblangan parametrlar uchun $t_{haq.} > t_{jad}$ qiymatidan yuqori bo'lishi lozim. $t=150,4$ (1-variant), $t=16,5$ (2-variant).

Ma'lumki determinatsiya koeffitsienti 0 dan 1 gacha bo'lgan qiymatlarni qabul qiladi. Tanlangan omil qiymati 1 ga yaqin bo'lsa, omil ta'siri kuchli bo'ladi. Ushbu holatda determinatsiya koeffitsienti $R^2 = 0,7880$ (1-variant), $R^2 = 0,1898$ (2-variant)ga teng bo'lib, tanlangan omil ko'rsatkichlari natijaga (Y) ta'siri 78,80 va 18,98 foizga teng ekanligi aniqlandi.

III – bob bo'yicha xulosa.

Xulosa qilib aytganda, keyingi yillarda innovatsion iqtisodiyot asosida rivojlanayotgan bir qator mamlakatlarda gigant korxonalar bajargan avvalgi ko'p vazifalarni mobil, ya'ni ixcham, kichik korxonalar tomonidan amalga oshirish jarayoni kuzatilmoqda. Aynan shu sabablarga ko'ra, yirik sanoat korxonalari soni qisqarib, kichik korxonalar soni keskin sur'atlarda ortib bormoqda. Bu jarayon bozor iqtisodiyotining dinamik, harakatchan, yangiliklarga hozirjavob tarzda o'sishi, bozordagi talab va uning o'zgarishiga tez moslashuvchan bo'lishini ta'minlamoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Hududlarda KBXT sub'ektlarining barqaror rivojlanini ta'minlashda quyidagilarni amalga oshirish zarur: hududiy tadbirkorlik sub'ektlarida ishlab chiqarish samaradorligini intensiv omillar, ishlab chiqarishning ilg'or shakllari hisobiga oshirish; tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish maqsadida yirik milliy va xorijiy kompaniyalarning bo'limlari, filiallarini joylashtirish; tuman va shaharlarda hududiy tadbirkorlik faoliyatini iste'mol tovarlari ishlab chiqarishga yo'naltirish; tuman va shaharlar o'rtasida hududiy tadbirkorlik sub'ektlari rivojlanishidagi farqlarni kamaytirish va shu kabilar.

2. Respublikamiz viloyatlari iqtisodiyotining turli tarmoqlarida faoliyat ko'rsatuvchi ayrim KBXT korxonalarini innovatsiyaviy salohiyatining hisoblangan natijalari tahliliga ko'ra, viloyatlardagi kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning turli sohada faoliyat ko'rsatishidan qat'iy nazar, innovatsiyaviy faoliyatni amalga oshirish imkoniyati past darajada ekanligi aniqlandi. Bu holat zarur hajmdagi resurslarning yetishmasligi va innovatsiyaviy salohiyat tarkibiy qismi tuzilmalari past ko'rsatkichga ega ekanligidan dalolat beradi.

3. "SWOT" tahlilda, hududlarda KBXT faoliyatini boshqarishda kuchli tomonlari bilan bir qatorda, zaif tomonlari ham mavjud. Shunday ekan, hududlarda KBXT sohasini boshqaruvchi rahbarlar zaif tomonlariga alohida e'tibor berishlari lozim. Aks holda hududlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni innovatsion rivojlanishida kutilgan samaradorlikka erishib bo'lmaydi.

4. Hududlarda joriy qilingan innovatsiyalar soni bo'yicha, o'rtachadan yuqori hududlarga Sirdaryo (7,9), Navoiy (7,8) viloyatlari kiradi. O'rtacha hududlarga esa Surxondaryo (3,4), Toshkent (3,3), Buxoro (2,9) viloyatlari kirgan. O'rtachadan past hududlarga Farg'ona (2,8), Jizzax (2,3), Namangan (1,8), Qoraqalpog'iston Respublikasi (1,4), Xorazm (1,0), Andijon (0,9), Samarqand (0,7), Qashqadaryo (0,4) kirgan. Bizning fikrimizcha o'rtachadan past hududlarga innovatsiyalarni joriy qilish orqali ushbu hududlar ham yuqori natijalarga erishishlari mumkin.

5. KBXT tomonidan texnologik, marketing tashkiliy innovatsiyalarga qilingan xarajatlar hajmi bo'yicha, o'rtachadan yuqori hududlarga Sirdaryo (6,3) viloyati kiradi. O'rtacha hududlarga esa Navoiy (4,2) viloyati kirgan. O'rtachadan past hududlarga qolgan 11 ta hudud kirganligini ko'rishimiz mumkin.

6. KBXT tomonidan ishlab chiqarilgan innovatsion tovarlar, ishlar va xizmatlar hajmi bo'yicha, o'rtachadan yuqori hududlarga Sirdaryo (7,1), Navoiy (6,7), Toshkent (5,6) viloyatlari kiradi. O'rtacha hududlarga esa Jizzax (4,3), Namangan (3,3), Farg'ona (3,1) viloyatlari kirgan. O'rtachadan past hududlarga esa Xorazm (2,4), Buxoro (2,4), Samarqand (2,1), Qoraqalpog'iston Respublikasi (1,2), Surxondaryo (1,7), Andijon (0,9), Qashqadaryo (0,5) kirgan.

7. 7. Panel POLS, FEE, FDE, REE ekonometrik modellarining regression koeffitsientlari keltirilgan bo'lib, masalan POLS modelida chakana savdo (0,299) va xizmatlar (0,224) ga teng, ya'ni chakana savdo va xizmatlarning bir foizga ortishi, mamlakatda umumiy KBXTning YaQQni mos ravishda 0,3 % va 0,22% ortishiga olib keladi.

8. 8. Hududlarda KBXTni barqaror va jadal rivojlantirish uchun ularning iqtisodiy va investitsiyaviy salohiyatini, kompleks va mutanosib ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini, tabiiy xom ashyo resurslaridan foydalanish samaradorligini, hamda past reytingga ega hududlarni reytingini oshirishda quyidagi yo'nalishlardagi strategik vazifalarni amalga oshirish zarur:

- KBXTning statistik ko'rsatkichlari va so'rovnomalari natijalari asosida hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini reyting baholash tizimini joriy etish;

- KBXT sohasida yangi ish joylarini yaratish orqali ishsizlikni kamaytirish va mehnat bozori samaradorligini oshirish;

- aholi va biznes uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, ishlab chiqarish infratuzilmasining barqarorligi hamda ishonchliligini ta'minlash;

- hududlarning raqobatbardoshlik darajasini oshirgan holda ularning iqtisodiyotini yanada barqaror rivojlantirish.

9. 9. Hududlarda KBXTni rivojlanishidagi mavjud muammolarni yechimini topish va 2022-2026 yillarda prognozlashtirilgan parametrlar ijrosini ta'minlash,

ushbu sohadagi ustuvor yo‘nalishlarni aniqlash va ular bo‘yicha chora-tadbirlarni belgilash talab etiladi

10. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida respublikamiz hududlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’ektlariga alohida e‘tibor qaratilib, bu jarayon yangi innovatsiyalar va tashabbuskorlikni talab etib, shular asosidagina iqtisodiy rivojlanishni ta‘minlash mumkin. Buning uchun KBXT sub’ektlari fan va texnikada erishilgan eng so‘nggi innovatsiyalarni amaliyotga joriy etilishiga alohida e‘tibor qaratishlari lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. Normativ-huquqiy hujjatlar va metodologik ahamiyatga molik nashrlar.

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi–T.: “O'zbekiston”NMIU, 2016.
2. O'zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risida”gi Qonuni. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997 yil. 9-son, 225-modda.
3. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997 yil. 11-12-son, 295-modda.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ta’lim muassasalarining bitiruvchilarini tadbirkorlik faoliyatiga jalb etish borasidagi qo‘shimcha chora tadbirlar to’g’risida”gi Farmoni. 2010 yil 28 iyul.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to’g’risida”gi PF-4947-sonli Farmoni 2017 yil 7 fevral. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y, 6-son
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim tizimini yanada takomillashtirish to’g’risida» gi PF-4958-son Farmoni. 2017 yil 16 fevral.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida» PQ-2909-son qarori 2017 yil 20 aprel.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining“ Oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PQ-3151-sonli Qarori 2017 yil 27 iyul.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 12 iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PF–4732-son Farmoni.

10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta’lim muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2011 yil 20 maydagi 1533-sonli Qarori

11. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to‘g‘risida” gi Qarori 2012 yil 26 sentabr. 278- son.

12. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012 yil 28 dekabrda “Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim xamda oliy malakali ilmiy va ilmiy pedagogik kadrlarni attestatsiyadan o‘tkazish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 365- sonli Qarori.

13. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Respublika oliy ta’lim muassasalari reytingini baholash tizimini joriy etish to‘g‘risida” gi Qarori. 2012 yil 29 dekabr. 371 son.

14. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 20 avgustdagi 242-son qarori bilan tasdiqlangan “Oliy ta’lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2015 y.,33 (689)-son, 442-modda.

15. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo‘llari va choralari. -T.: O‘zbekiston, 2009. - 56 b.

16. Karimov I.A. Mamlakatni modernizatsiya qilish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish Konsepsiyasi. –Toshkent: O‘zbekiston, 2010.

17. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat–yengilmas kuch. –T.: Ma’naviyat, 2008.

18. Karimov I.A. “Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo‘lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir” -T.: O‘zbekiston, 2016.

19. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokrati O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish

tantanali marosimiga bag'ishlangan
Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutk
/Sh.M. Mirziyoyev. - Toshkent: «Uzbekistan» NMIU, 2016. -
56 b.

20. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O'zbekiston Respublikasi Konstistutsiyasi qabul qilinganligining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruza. 2016 yil 7 dekabr/Sh.M.Mirziyoyev. – toshkent “O'zbekiston” NMIU, 2017.- 48 b.

21. Мирзиёев Ш.М. “Танқидий таҳлил, катъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик - ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қондаси бўлиши керак”. Мамлакатимизни 2016 йилда ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришнинг асосий яқунлари ва 2017 йилга мўлжалланган иқтисодий дастурнинг энг муҳим устувор йўналишларига бағишланган Вазирлар Маҳкамасининг кенгайтирилган мажлисидаги маъруза, 2017 йил 14 январ. - Тошкент: «Ўзбекистон», 2017. - 104 б.

22. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz.- Toshkent “O'zbekiston” NMIU, 2017. - 488 b.

23. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2015 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2016 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi “Bosh maqsadimiz – mavjud qiyinchiliklarga qaramasdan, olib borayotgan islohotlarni, iqtisodiyotimizda tarkibiy o'zgarishlarni izchil davom ettirish, xususiy mulkchilik, kichik biznes va tadbirkorlikka yanada keng yo'l ochib berish hisobidan oldinga yurishdir” nomli ma'ruzasi . //“Xalq so'zi” gazetasi. 2016 yil 16 yanvar.

24. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga

bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi "Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik- har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak" nomli ma'ruzasi . //“Xalq so‘zi” gazetasi. 2017 yil 16 yanvar.

25. Azareva V. V., Kruglov V. I., Puzankov D. V., Sobolev V. S., Solovev V. P., Stepanov I. V., Stepanov S. A., Yashenko V. V. “Metodicheskie rekomendatsii po vnedreniyu tipovoy modeli sistema kachestva obrazovatel'nogo uchrejdeniya” - Sankt_Peterburg, Izdatelstvo SPb. GETU «LETI», 2006.

26. Alekseeva, L. N. Innovatsionnye tekhnologii kak resurs eksperimenta/ L. N. Alekseeva// Uchitel. - 2004. - № 3. - s. 28-30.

27. Andreev, Grigoriy Ivanovich. Osnovy nauchnoy raboty i oformlenie rezultatov nauchnoy deyatel'nosti: v pomoshch' napisaniya dissertatsii i referatov: uchebnoe posobie / G.I. Andreev, S.A. Smirnov, V.A. Tixomirov. – M.: Finansy i statistika, 2008.

28. Esenbaeva G.A., Kakenov K.S., Kakenova U.K. Otsenka faktorov, vliyayushchix na kachestvo obrazovaniya v vuze // Mejdunarodnyy jurnal eksperimental'nogo obrazovaniya. – 2016. – № 2-2.

29. Zlobin E.V., Mishchenko S.V., Gerasimov B.I. Upravlenie kachestvom v obrazovatel'noy organizatsii. Tambov: Izd-vo Tamb. Gos. texn. un-ta, 2004.-88 s.

II. Monografiya, ilmiy maqola, patent, ilmiy to‘plamlar.

30. Ibragimov X. Uzluksiz ta'lim tizimini mazmunan modernizatsiyalash samaradorligini oshirish – davr talabi. Ta'lim muammolari. Ilmiy-uslubiy jurnali. Toshkent 2011 yil 2–son.

31. Коротков, Э.М. Управление качеством образования: учебное пособие для вузов /Э.М. Коротков. — 2-э изд. — М. : Академический Проект, 2007. — 320 с.

32. Критерии и показатели качества образования. /Заграй Н.П., Пуховский В.П, Синявская И.А.\ Инженерное образование № 3, 2005 г.

33. Курбанов, Э. Сейтхалилов. Таълим сифатини бошқариш. Тошкент. “Турон-Иқбол”, 2006. 590 бет.

34. Larionova M. Prepodavatel vuza — sub'ekt modernizatsii obrazovaniya// Vysshee obrazovanie v Rossii. 2007 №12.
35. Лях, Ю. А. Совершенствование системы отсенки качества общего образования// Ю. А. Лях // Вестник Костромского государственного университета им. Н. А. Некрасова. Серия: Педагогика. Психология. Сотсиальная работа. Ювенология. Сотсиокинети-ка. - 2016. - Т. 22. -№ 2.
36. Кравсов, С. С. Основные направления развития общероссийской системы отсенки качества образования / С. С. Кравсов // Педагогические измерения. - 2016. - № 2.
37. Мазур И.И., В.Д. Шапиро. Управление качеством: уч. пособ. для студентов вузов – М.: Изд-во Омега - Л, 2006.
38. Масалова Ю.А. Формирование и мотивасия профессорско-преподавателского состава вуза, ориентированного на качество образовательного протесса. Дисс. к.э.н. Иркутск, 2006.
39. Меликян А.В. Обеспечение качества высшего образования в странах ОЕРС.// Вестник международных организасий: образование, наука, новая экономика, 2008. № 7/8
40. Peregudov L.V., Saidov M.X. Oliy ta'lim menejmenti va iqtisodiyoti.T.: “Moliya” nashriyoti, 2002 y. 184 b.
41. Раевская Э.И., Кишев Ю.И. Основные тенденции развития инновасионного менеджмента в сфере высшего образования // [хтп://www.ибл.ру/конф/130510/32.хтмл](http://www.ибл.ру/конф/130510/32.хтмл)
42. Saidov M.X. Oliy ta'lim tizimida moliyaviy boshqaruv: o'quv qo'llanma/ M.X.Saidov. – Т.: “Tafakkur – Во'ston”, 2011. 432 b.
43. Скрипникова Л.В.Современные подходы к управлению качеством подготовки спесциалистов в высших учебных заведениях/ Известия ВГПУ, №1(262), 2014.
44. Современное профессиональное образование: актуальные проблемы и пути совершенствования. / под ред. проф. А.И. Шамардина. // материалы

Всероссийской научно-методической конференции. - Научная книга - Саратов, 2005. - С.87.

45. Терентева Т. В. Факторы, влияющие на эффективность образовательных услуг вуза в современном обществе / Т. В.Терентева, М. Н. Кулакова // Современные проблемы науки и образования. – 2012. – № 5.

46. Шеметова Н. К. К вопросу о классификации факторов, оказывающих влияние на формирование маркетинговой стратегии вуза / Н. К. Шеметова // Научный вестник Уралской академии государственной службы. – 2011.

47. Angus Maddison. “Historical Statistics on World Population, GDP and Per Capita GDP, 1 – 2008 AD”.

48. Kis V. Quality Assurance in Tertiary Education: Current Practices in OECD Countries and a Literature Review on Potential Effect, OECD, 2005, p. 34.

49. El-Khawas E. Accreditations role in quality assurance in United States// Higher Education Management, November 1998. Vol.10No.3.p.43-56.

50. Gordon G. Approaches to effective internal processes to quality management:an initial analysis//Tertiary Education and Management/Vol.4No.4/ 1998/h/295-301.

51. Jacobsson P.A plea for more consistent definition of quality in education and research//Quality and communication for improvement: proceedings 12 th European AIR Forum, University Claude Bernard Ecole normale Supyriere Lyon, france, September 9-12, 1990, Enschede: EAIR, a European Higher Education Society; Utrecht: Lemma. P.59-84.

52. L. Vlasceanu, L.C. Barrows. Indicators for Institutional and Programme Accreditation in Higher/Tertiary Education. UNESCO Studies on Higher Education, 2004. <http://www.cepes.ro/publications/pdf/Indicators.pdf>.

53. Lambert Review of Business-University Collaboration, 2003. http://www.hm-treasury.gov.uk./media/DDE/65/lambert_review_final_450.pdf. S. 108.

54. Mendenhai R.W. Technology: Creating New Models in Higher Education. Salt Lake City, Utah: Western Governors University, URL.:<http://www.nga.org/Files/pdf/HEGHEREDTECH.Pdf>.

55. The Bologna Process 2020 – The European Higher Education Area in the new decade. Communiqué of the Conference of the Conference of European Ministers Responsible for Higher Education. Leuven and Louvain-la-Neuve, 28-29 April 2009 // Высшее образование в России.-2009. - №7.- С.156-162

III. Foydalanilgan boshqa adabiyotlar.

www.bilimdon.uz. -O‘zbekiston Respublikasi oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining veb sayti.

www.pedagog.uz. – TDPU sayti

www.newhorizons.org. -Ta’limning yangi ufqlari.

www.ziyonet.uz

<http://studme.org/65664/menedzment/modeli>